جدید


Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

2024-yil 1-noyabr
№ 45(45)
www.jadid-media.uz

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

KOMILALIK TA’RIFI



“...Hazrat Navoiy oltmish yillik umri davomida, avvalo, millatimiz, qolaversa, umumbashariyat ma’naviyati va ma’rifati ravnaqi uchun bir umr xizmat qiladigan boy adabiy meros qoldirdi. U barcha asarlarida insoni sharifni ulug‘laganiga guvoh bo‘lamiz...”

(5-sahifada o‘qing).

JARAYON

BUGUNGI VATAN TAYANCHLARI – ERTANGI YURT USTUNLARI

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Sohibqiron Amir Temurning “Tuzuklar”i, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomayi sultoniy yoxud javonmardlik tariqati”, Bobur Mirzoning “Boburnoma” asarlari va boshqa ko‘plab nodir manbalarda chin farzand, Vatan himoyachisi, oila davomchisi, sha’n va sharaf himoyachisi qanday sifatlarga ega bo‘lishi lozimligi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladiki, bu bizga farzand tarbiyasidagi nozik chegaralarni eslatib turadi.



Yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan “Vatan tayanchi” harakati ham ana shunday muhim zarurat va mezonlar asosida maydonga chiqdi. Ushbu harakat har qanday sharoit va vaziyatda ham jamiyatning eng sadoqatli va faol, har qanday sinov va qiyinchiliklarni ham mardona yengib, o‘z hayotiy maqsadlari tomon ildam harakatlanadigan, Vatan manfaatini qadrlaydigan va himoya qiladigan fidoyi o‘smirlarni tarbiyalashdek ezgu niyat bilan o‘z faoliyatini boshladi.

“Vatan tayanchi” – bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati rahbari polkovnik Bahrom Zulfiqorov bilan kechgan suhbatimiz harakatning mazmun-mohiyati, faoliyati, xalqaro yutuqlari xususida bordi.

– Prezidentimizning 2022-yil 2-martdagi Mudofaa vazirligi huzurida “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori qabul qilinishi jamoatchilik tomonidan qizg‘in kutib olindi. Nomidan ham ma'lumki, “Vatan tayanchi” otryadlari yuqori sinf o‘quvchilarining eng jo‘shqin davrlarini qamrab olishi ko‘zda tutilgan. Buning mohiyatida qanday chuqur o‘ylangan maqsadlar bor?

– Darhaqiqat, “Vatan tayanchi” harakatiga o‘smirlar eng shijoatli pallalarda a’zo bo‘lishadi. Bu davrda ularda atrofdagi har qanday hodisalarga o‘z munosabatini bildirish, barchani o‘ziga jalb qilish ishtiyoqi yuqori bo‘ladi.

(Davomi 3-sahifada).

KUN MAVZUSI

TARAQQIYOTNING QO‘SH QANOTI



Ayni kunlarda yurtimiz bo‘ylab barcha oliy va o‘rta ta’lim dargohlarida “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida taniqli yozuvchi va shoirlar, adabiyotshunos olimlar hamda publitsistlar ishtirokida adabiy uchrashuvlar o‘tkazilmoqda. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi hamkorligida uyushtirilayotgan mazkur loyiha navqiron avlod vakillarini milliy adabiyotimiz, bebaho qadriyatlarimiz va shonli tariximiz bilan yanada yaqinroq tanishtirish va ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

MA’RIFAT ULASHIB

Loyihaning navbatdagi mavsumida poytaxtda yashab ijod qilayotgan qalamkashlarning ijodiy safar manzili – vodiy gavhari bo‘lmish Farg‘ona shahri bo‘ldi. Farg‘ona shahrida joylashgan Markaziy Osiyo tibbiyot universiteti, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti hamda Latviyaning axborot tizimlari menejmenti oliy maktabi Farg‘ona filiali, shuningdek, shahardagi o‘nga yaqin maktabda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Shuhrat Jabborov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi, taniqli adabiyotshunos olim Bahodir Karim hamda iste’dodli shoir Dilmurod Do‘st ishtirokida o‘tkazilgan qator uchrashuvlar, davra suhbatlari talaba va o‘quvchilar tomonidan qizg‘in kutib olindi.

Uch kunlik dastur va unda belgilangan ijodiy uchrashuvlardan tashqari mehmonlar talabalarning o‘qish sharoitlari, ta’lim muassasalarida yaratilgan qulayliklar bilan ham yaqindan tanishib, o‘quv maskanlaridagi kutubxonalar faoliyatini hamda ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni yangi sifat bosqichiga ko‘tarish yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini, takliflarini bildirishdi.

Shuningdek, oliy ta’lim dargohlariga biriktirilgan maktablarda o‘tkazilgan tadbirlarda iqtidorli o‘quvchilar ham o‘z ijodiy imkoniyatlarini namoyish etdi.

– Hamma zamonlarda ham inson qalbi eng qiziqarli va dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Bo‘lajak shifokorlar bilan o‘tkazgan uchrashuvlarimizda ular bilan bir xil ishni bajarayotganimizni gapirdim, – deydi filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim. – Ya’ni tibbiyot oliygohida tahsil olgan talabalar vaqti kelib inson tanasining salomatligi uchun tunni tongga ulab zahmat chekkanlari kabi biz adabiyot, so‘z xizmatkorlari ham inson ruhiyati, uning kayfiyati, bir so‘z bilan aytganda inson ko‘ngli “sog‘lomligi” uchun mehnat qilyapmiz. Aslida adabiyotshunoslar dunyoga kelgan asarni yoki uzoq umr ko‘rayotgan kitobni astoydil o‘rganib, unga “tashxis” qo‘yadi. Agar bo‘sh va saviyasiz bitilgan asarga duch kelib qolsa, unda “yurak” va “miya” faoliyati bilan bog‘liq kasallik alomatlari kuzatilayotganini bildirib o‘tish adabiyotshunos olimlarning vazifalaridan biridir. Tibbiyot yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalarga so‘zning qudrati, uning bemor bilan o‘zaro munosabatlarda eng samarali qurol ekani haqida gapirdik.

(Davomi 2-sahifada).

ORAMIZDAGI ODAMLAR

Fidoyilikning qiymati bo‘lmaydi. Qaysiki ishda bo‘lmasin, mehnatga muhabbat, o‘z vazifasiga vijdon amri bilan qarash, mas’uliyatni chuqur his qilish kishini yuksaklikka ko‘taradi.

Qoraqalpoq ayoli Turdigul Adenbayeva o‘smirlik yillaridanoq jamiyatning faol a'zosiga aylangan. Uncha-muncha qiyinchiliklarni tan olmaydi. Ish degan joyda halovatni unutadi. Opa bir yilda o‘n sakkiz million oltinko‘z kapalak yetishtiradi. Buning uchun esa...



YURAGIDA QUYOSH TAFTI BOR

U har mavsumda zararkunandalar uchun qo‘lbola tuzoq-feromon tutqichlari yog‘ochining o‘zigagina o‘n millionlab pul sarflaydi. Mavsum shu bilan o‘tsa qaniydi. Bundan tashqari, opa bozor oralab, bir yarim tonna shakar, ming metr bo‘z, bir yarim ming dona shisha idish, sakkiz tonna arpa, yuz kilogramm toza asal, yarim tonna asalari uyasi, o‘n quti saryog‘ va hokazolarni sotib oladi. Yil davomida bir oilani to‘ydirsa bo‘ladigan mablag‘ bilan lichinka boqadi, erta bahor esa mo‘jiza ro‘y beradi – u kishi parvarishlagan qurtchalar qanot chiqarib, haqiqiy fitosanitarlarga aylanadi.

Yoshi yetmishni qoralayotgan bu mehnatkash ayolni ko‘rgan odam hayratda qolishi shubhasiz. Uning chaqqon harakatlari, bolalarcha beg‘ubor olami, va eng muhimi, o‘z davri-davronidan rozi-yu rizoligi ko‘nglingizga iliqlik olib kiradi. Shu yoshida kajavali mototsikl minib dala kezayotgan, yoshi bir joydaligini ro‘kach qilmay yugurib-yelgan momoni ko‘rganmisiz?

– Ziyofat degan narsani bilmayman, to‘yma’rakaga ham kiraman-u chiqib ketaman. Hayotimning mazmuni – ish. Kapalaklarni bolamni boqqanday yaxshi ko‘rib boqaman, – deydi Turdigul opa.

Qo‘ng‘irot tumanidagi O‘rnak ovul fuqarolar yig‘inida uning xizmatidan foydalanmagan odam yo‘q. Shuncha xarajat tortib, qishi bilan boqib chiqqan kapalaklarini fermer olib ketishini kutib o‘tirmasdan, dala kezib paxtazor-u g‘allazorlarga o‘zi qo‘yib chiqadi. Ovuldagilarning tomorqalari uchun esa pulga chaqmay berib yuboraveradi. Uyida ekini, ko‘ki bo‘lsa, so‘rab o‘tirmay, hovlisiga tashlab ketadi. Yer egalariga, tadbirkorlarga, qo‘ni-qo‘shnilarga beminnat xizmat ko‘rsatadi.

(Davomi 2-sahifada).

SAN’AT

MARG‘ILONDA UVAYSIYNI KO‘RDIM

Sevikli shoirimiz Muhammad Yusuf bir paytlari “Marg‘ilonda Kumushni ko‘rdim”, – deya ash’or bitmishdi. O‘qigan zahotim “Yo qudratingdan! Kumushni-ya?!” degandim. Bilasiz, ko‘rmasam, tinchimaydiganlardanman. Qaydasan, Marg‘ilon deb yo‘lga tushvordim.

So‘rab-so‘rab, Makkani topgan. “Poyezdingni jildirgan o‘txonasi bilan do‘ngalagi” deb marg‘ilonlik mard yigitlarning shahriga o‘taravamni uloqchi otdek harsillatib kirib bordim. Shohbekatda birinchi duch kelgan ulovga mingashdim. Shopir aka manzilni so‘radi, “To‘g‘ri, moziyg‘a!” dedim. Bechora “ajabsing‘an” bo‘ldi, peshonasida turgan ko‘zguga qaradi: “Dunyoda bunday manzil borlig‘ini umrimda birinchi martaba eshitaman, bek!” – dedi. Men ham og‘ziga urdim: “Dunyoda bunday manzil yo‘q deb o‘ylaysizmi, siz eshitmagan bo‘lsangiz, manim eshitkanim bor... Bilmasangiz, bilgan yeringizg‘a boshlangiz!” Yelka qisib, gazni bosdi. Birozdan keyin to‘xtab, bir dargohga ishora qildi. Xayriyat! Tushungan odamni sadag‘asi ketsang arziydi. Ayni men izlagan manzil! Tepasiga “Marg‘ilon shahar musiqali maqom teatri” deb yozilgan. Ha-a, otangga balli, o‘qig‘uvchi! “Bu dargohdan hali hech kim norizo bo‘lib ketgan emas!”

Ichkariladim. E-he-e! Zalning old qatorlari to‘lla odam! Baraka topkur mezbonlar men yoyilib, yayrab tomosha qilishim uchun o‘nlab o‘rin hozirlashibdi. Nazoratchi opalardan biri: “Kecha kelsangiz bo‘larkan, rosa ko‘pchilik kelgandi”, – dedi. Mayli, bu haqida keyinroq gaplashamiz, parda ochildi!

Tolibjon Ro‘ziboyev qalamiga mansub mazkur asar ma’rifatparvar shoira Jahon otin Uvaysiy yashagan davr, xususan Amir Umarxonning Marg‘ilonga hokimlik qilgan paytlari, Nodirabegim bilan Uvaysiy munosabatlari, Qo‘qon adabiy muhiti va siyosiy-ijtimoiy vaziyat haqida qisqacha ma’lumot beradi.

(Davomi 3-sahifada).

MULOHAZA

Bugun ijtimoiy tarmoqlar odamlarning yashash tarzi, orzu-umidlari, hayotiy qarashlari, siyosiy tutumlarining o‘ziga xos ko‘zgusiga aylangan. Yana ijtimoiy tarmoqlarni huv o‘sha Iskandarning shoxi haqidagi sir aytilgan va undan o‘sib chiqqan qamishdan yasalgan nayga ham mengzashadi – yopiqliq qozon yopiqligicha qolib ketmasligiga ishora. Shundanmikan, kimlardir dardini to‘kib-solgisi keladi.



Ezgulik, qadriyatlardan hikoya qiluvchi hayotiy voqealar aks etgan havolalar boshqalarni (ayniqsa, yosh avlodni) tarbiyalashga ozmi-ko‘pmi xizmat qiladi – “chillaki chillakini ko‘rib chumak uradi” deyilmish gap bor, axir. (Garchi aynan adabiy-ma’rifiy mazmundagi guruhlar ishtirokchilari boshqa – “oldi-qochdi”larga to‘lgan guruhlar a’zolaridan o‘nlab marta kam bo‘lsa-da). Va yana...

Gohida “Falonchi otasiga falon rusumdagi xorij avtoulovini sovg‘a qildi” mazmunidagi xabarga ko‘zimiz tushadi. Unda ulov rasmi, kalitni topshirayotgan o‘g‘il yoki qiz va baxtiyor ota aks etgan bo‘ladi. Bunday xabarlarga bildirilgan munosabatlar asosan bir mazmunda: “Yasha, otao‘g‘il!”, “Bizga ham nasib qilsin!”, “ Qani hammaning ham shunday oqil farzandi bo‘lsa!” “Ota-onani rozi qilish bundan ortiq bo‘lmas!”

(Davomi 5-sahifada).



TARAQQIYOTNING QO‘SH QANOTI

Boshlanishi 1-sahifada.

Besh-olti yil davomida universitetda o‘qib o‘zlashtirilgan bilimlar va ish davomida egallangan tajribani tarozining bir pallasiga qo‘ysak, ikkinchi pallada turgan so‘z atalmish buyuk ne’mat ham zalvorli tosh bosishini alohida ta’kidladik. “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida tibbiyot universitetlarida adib va shoirlar bilan uchrashuvlar o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri ham so‘zning mo‘jizaviy qudratini bo‘lajak shifokorlarga anglatishdan iboratdir.

KO‘Z O‘NGIMIZDA RO‘Y BERAYOTGAN O‘ZGARISHLAR

“Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurgan mehmonlar bu yerda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarini alohida e’tirof etishdi. Darhaqiqat, Prezidentimiz joriy yil 11-iyulda Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida aholi uchun munosib yashash sharoitlarini yaratish va ijtimoiy infratuzilmani yanada takomillashtirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratib, bu borada bir qator muhim loyihalarni hayotga tatbiq etish yuzasidan topshiriqlar berdilar.

Xususan, Prezidentimiz Farg‘ona shahrida 65 ming nafar aholiga mo‘ljallangan 365 ta ko‘p qavatli uydan iborat “Yangi O‘zbekiston” massivida bajarilayotgan qurilish ishlari bilan tanishdilar. E’tiborlisi, ushbu zamonaviy maskanda foydalanishga topshirilgan 2 887 xonadondan iborat 75 ta ko‘p qavatli uy va uning atrofida barpo etilgan bog‘lar allaqachon odamlar bilan gavjum bo‘lgan obod manzilga aylangan. Uch yuz gektar maydonni egallagan “Yangi O‘zbekiston” massivi qurilishida aholi uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy obyektlarning qulay lokatsiyalarda bunyod etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

– Mamlakatimizning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Farg‘ona vodiysida ham ulkan bunyodkorlik ishlari ma’rifat va ma’naviyat asosida ko‘kka bo‘ylayotganiga guvoh bo‘lib turibmiz, – deydi shoir Dilmurod Do‘st. – Zamonaviy shaharlarga fayz bag‘ishlaydigan kutubxona, kitob do‘konlari, ilm-u fan maskanlari ham qad rostlayotgani bizni behad quvontiradi. Yana bir gapni aytib o‘tishim kerak, bu loyiha nafaqat adabiyot muxlislari, balki ijodkorlar uchun ham manfaatli bo‘lyapti. Bir ustozim lutf etganidek, biz nafaqat ma’rifat ulashyapmiz, o‘z navbatida ma’naviyat durlarini ham terib, ma’nan ham boyib qaytmoqdamiz.

Yurtboshimiz farg‘onaliklar bilan o‘tkazilgan uchrashuvda Marg‘ilon shahri yurtimizdagi aholi gavjum hududlardan biri ekanini alohida ta’kidlab shunday degan edilar: “Mamlakatimizning ko‘p joylarida yangi massivlar, shaharchalar quryapmiz. Marg‘ilonliklarning yashash sharoitlaridan, uy-joylarga ehtiyojidan xabarim bor. Shu talab va istaklarni, ko‘pchilik oilalarning orzularini inobatga olib, zamonaviy imoratlar qurishni o‘ylayapmiz”.

Tadbir davomida Marg‘ilonda Burhonuddin Marg‘inoniy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Maqom teatri, yuridik institut, shoir va san’atkorlar xiyoboni, zamonaviy mehmonxonalar, savdo va xizmat majmualari barpo etilishidan xabardor bo‘lgan marg‘ilonliklar behad xursand bo‘lishgan edi.

“Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida o‘tkazilayotgan uchrashuvlarda islohotlarning chekka hududlargacha yetib borayotgani, buning natijasida odamlarning hayoti yaxshi tomonga o‘zgarayotgani hayotiy misollar asosida ta’kidlab o‘tildi.

– Farg‘ona shahriga ijodiy safarimiz chog‘ida muhtaram Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning Farg‘ona misolidagi amaliy natijalarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim, – deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Shuhrat Jabborov. – Biz kasbimiz taqozosi bilan ko‘plab odamlar bilan suhbatlashamiz. “Ma’rifat ulashib” loyihasi sabab ta’lim muassasasidagi o‘qituvchi va o‘quvchilar hamda mahallalardagi uchrashuvlarda, aholi bilan bo‘lgan suhbatlar chog‘ida e’tiborimni tortgan jihatlardan biri farg‘onaliklarning hayotga, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi, ularning yaratilayotgan imkoniyatlardan mamnunligi bo‘ldi. Ana shunda uzoqni ko‘zlab olib borilayotgan oqilona siyosat, inson qadrini ulug‘lovchi ezgu g‘oya bugun odamlar hayotini o‘zgartirayotganiga guvoh bo‘ldik.

Mamlakatimiz rivojining bir qanoti iqtisodiyot bo‘lsa, uning ikkinchisi, hech shubhasiz, ma’naviyatdir. Ularni bir-biridan ayro tasavvur etib bo‘lmasligi bugun hech kimga sir emas. Shu ma’noda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga hamohang ravishda tashkil etilayotgan “Ma’rifat ulashib” adabiy-ma’rifiy loyihasi ham Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot parvozi ishonchli va bardavom bo‘lishiga xizmat qilishi shubhasiz.

Ulug‘bek SOLIYEV,
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti prorektori



QO‘NG‘IROT TOMONLARDA

YURAGIDA QUYOSH TAFTI BOR

Boshlanishi 1-sahifada.

Axir, kam emas, uch ming gektar g‘alla, to‘rt ming gektar paxta maydoniga mas’ul u. 1999-yilda ekin maydonlarini shira bostirgan oqpalaklar uning qarovidagi yerlarda yo‘q bugun. Opaning oltinko‘z kapalaklari, trixogramma, brokin etnomofaglari tufayli Qo‘ng‘irotning ko‘kalamiga hasharot dorimay qo‘ygan.

Asli Turdigul opaning ish boshlashi tarixi ham qiziq. Adenbay bobosidan ko‘p yaxshiliklar ko‘rgan otasining do‘sti sovxozga direktor etib tayinlanadi. U o‘qituvchi holiga yetti farzandni qiynalib boqayotgan qadrdoniga oqibat ko‘rsatib, 6-sinfda o‘qib yurgan Turdigulni statistlikka ishga qabul qiladi. Tabiatan mehnatga chanqoq qiz hisob-kitob ishlarini qattiqqo‘l otasidan o‘rganadi.

– Hisobni chiqarolmay qiynalsam, otam koyib berardi. Chunki ishni eplab ketishimni juda-juda istar edi-da, – deydi opa o‘sha kunlarni eslab.

Otaning umidi, sovxoz rahbarining ishonchi tirishqoq Turdigulning qat'iyatini mustahkamladi. Yo‘qsa, ellik uch yil bir joyda ishlab, suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib, matonat kasb etish har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. O‘quvchilik yillaridayoq katta sovxozda ham statist, ham direktor kotibasi, ham hisobchining yordamchisi bo‘lib ishlashiga to‘g‘ri keldi. Shu orada paxta dalalarini taftish qilish masalasida borib-kelib, agrar sohaga ham qiziqib qoldi. 1998-yilda sobiq sovxoz mehmonxonasini unga biolaboratoriyaga moslashtirib berishdi-yu, joni kirdi. Bo‘lganda ham fidoyi agronom etimolog bo‘lib, bir g‘ayratiga o‘n g‘ayrat qo‘shib, faoliyat yurita boshladi. Qirq besh yoshida sadoqatli suyanchi – umr yo‘ldoshidan ayrilgach, ota o‘rnida ota bo‘lib, bolalarining to‘rtalasini ham mehnatga o‘rgatdi. Ularni laboratoriyadan nari ketgani qo‘ymadi.

Bugun Turdigul opaning o‘n nabirasi, ikki evarasi bor. O‘n besh jon kunduzi boshqa yumushlarini bajarsa, kechasi laboratoriya ishi bilan mashg‘ul. Musiqa qo‘yib, tungi soat 3-4 gacha zavq bilan lichinkalarga ovqat tayyorlashadi, ularni ko‘paytirish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishadi. Shartnoma bo‘yicha hamkorlik qilayotgan fermerlar ba’zan to‘lovni kechiktirsa yoki berolmasa ham opa og‘rinmaydi. O‘z yumushlarini savob umidida bajarib ketaveradi.

– Ba’zi odamlar qarzini uzish tugul, salomimga alik olgisi kelmaydi. Axir, salomga alik ham qarzi azaliy emasmi? Nima derdim? Mayli-da, deyman. Vijdonim uchun ishlayman. Ko‘zim to‘q, ko‘nglim to‘q bo‘lsa bas, chala-chulpa ish qilib birovni aldayolmayman. Dalaning ikki boshidan ikki bolamni solib, o‘rtadan o‘zim oralab tekshirib chiqaman. Biror ish bitmasa, uyqum qochadi. Hayotimda biron marta sanatoriyga borgan emasman. Kasalxonada ham hech qachon davolanmadim. Chunki kasal bo‘lishga vaqtim yo‘q.



Opa “raddi balo” tayyorlash uchun o‘n kilogramm makka uniga uch kilogramm arpa uni, o‘n kilogramm kepak, ikki yarim kilogramm qumshakar, shuncha olma qoqini go‘sht qiymalagichdan o‘tkazib qo‘shadi. Yana unga uch litr qatiq qo‘shib qoradi. Qovurilgan masalliqni duxovkaga solib, kunjara tusiga kirguncha pishiradi. So‘ng uni quritib, lichinkalarga yediradi... Daraxt ko‘chatlarini ko‘paytirib mahalladoshlariga, tanishnotanish odamlarga tarqatishni, paxta dalalari bo‘ylab ekishni ham kanda qilmaydi. Turdigul opa ekkan daraxtlarning hisobi yo‘q.

U nabiralari bilan chiqib, defolyatsiya tegmay qolgan barglar orasida yashirin rivojlangan kapalaklarni tutib, bankaga soladi. Oila kuniga 10-15 banka kapalak teradi. Kapalakning har bittasi bir sutkada 50-60 donadan urug‘ qo‘yadi. Bir lichinkadan esa 15 dona brokin etnomofoklari olinadi. Boshqa tumanlar uchun ham “onalik” tayyorlab beradi. Qoraqalpog‘istondagi 70 ta laboratoriyaning eng ilg‘ori Turdigul opaning “Oltinko‘z – Sartur”i.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar Turdigul Adenbayeva kabi mehnatkash insonlar uchun ayniqsa, xayrli keldi. Inson qadri ulug‘lanib, opaning yurtga qilgan xizmati sharaf topdi. 2021-yilda opa “Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi. Bir necha bor ko‘krak nishonlari bilan mukofotlandi. 2023-yilda esa “Do‘stlik” ordeniga munosib ko‘rildi. Eski mehmonxona joylashgan hudud opaga 99 yillik shartnoma bilan rasmiylashtirib berildi. Xudo ol qulim, desa hech gap emas ekan-da...

O‘sha berilgan joydan ham o‘ziga ish topdi. Qarovsiz bo‘lib, ajriqzorga aylanib ketgan, tosh qotgan yerni tirnab tozalab, bir boshidan bog‘-u gulzorga aylantira ketdi. Ishlab yurgan kezlarida dayoq qadagan ko‘chatlari meva berib, tonnalab nok olishga tushdi. Hosilni yig‘ib-terib, bozorda sotib keladi, kuzda katta-katta idishlarga har xil tuzlamalar tayyorlab, yaqin atrofdagi do‘konlarga topshiradi. Opadan daromadi haqida so‘radik.

– Ish ko‘p. Pul esa har doim ham bo‘lavermaydi. Tashqaridan ishchi olib ko‘rdim. Ertalab soat to‘qqizda kelib, kechki beshda ketadigan yordamchilar yolladim. Pul berolmay qolgan paytimda meni sudga ham berishdi. Chunki ular tushunmaydi. Men foyda qilyapmanmi, zarar qilyapmanmi, hisob-kitob qilmayman. Nima bo‘lsa ham ishlayveraman. Ba’zan arzimagan pulni ham topolmay qolaman. Chunki menga pul beradigan fermer ham hosilini yig‘ib foydaga chiqadigan kunni kutadi. Hatto, u kutilmagan muammo tufayli ko‘zlagan hosilini ololmay qolishi mumkin. Shunday vaqtlarda men unga yopishmayman-ku mening pulimni ber, deb. Ha, topgan paytida beradi-da, deb qo‘l siltab qo‘yaman. Lekin ishchi olsangiz, haqli ravishda maoshini talab qiladi. Shuning uchun ham oilaviy ishlashga o‘tib oldim. Faqat mavsum paytidagina 15-20 odamni kunbay ishlataman. Ular bilan ham kelishib olaman, pul berolmay qolgan paytim, uyiga oziq-ovqatini o‘z nomimga nasiyaga yozdirib olib kelib beraman. Qo‘limga pul tushishi bilan do‘kondagi qarzimni yopib ketaveraman. Shunday qilmasam, ish to‘xtab qoladi-da!

Turdigul Adenbayeva bilan yana ko‘p masalalar haqida gaplashdik, uning yutuqlaridan quvondik, orzularidan boxabar bo‘ldik. Opaning “Bundan keyin ham foyda-zararimni bilmay xalqqa xizmat qilishim uchun Xudodan har kuni menga kuch-quvvat berishini so‘rayman”, degan gapi xayolimda qattiq o‘rnashib qoldi.

Men bu zahmatkash, samimiy ayolning qalbida saxiy qoraqalpoq quyoshining taftini his qilgandek bo‘ldim.

AYOL MATONATI

IRODADAN YARALGAN INSON

Malika Artiqbayeva bolaligida poliomielit kasalligining falajsiz turiga chalindi. Har qancha davolatishmasin, to‘liq tuzalib ketishning imkoni bo‘lmadi. U boshqalar kabi to‘shakka mixlanib qolmadi-yu, oyoqlari rivojlanishdan to‘xtab, yurishga qiynaladigan bo‘ldi. Mana, qarib-qartaydi hamki, bir joyga borgisi kelsa, jonini qiynab protez taqadi. Lekin nogiron bo‘lishiga qaramay, ovulida chevarchilik qiladi.



Odam o‘z hovlisiga tushgan qorni o‘zi kuraydi. Doimiy dardlar Malika opaning suyagini yemirdi-yu, bardoshiga tegolmadi. Rango-rang iplarda orzularini ninaga o‘tkazib, tikish va to‘qishga berildi. Ayollar jurnallarida “Tikishni o‘rganamiz” ruknida muntazam berib boriladigan andozalarni erinmay kesib oldi. Tavakkaliga mato qirqib, bichim oldi, mustaqil ravishda chevarlikka qo‘l urdi.

Asta-sekin ovuldoshlari unga ko‘ylak tiktira boshladi. Shu-shu tirikchiligi tikuvchilik ortidan bo‘ldi. Protez og‘rig‘idan ozorlanib, uy ichida “to‘rt oyoqlab” yurdi, emaklab-emaklab bichiq qildi, qadalib o‘tirib libos yaratdi. Vaqti yetib, tajriba to‘plab, o‘ttizga yaqin xotin-qizni tikuvchilikka o‘rgatib, shogird qilib tarbiyaladi.

Otasidan qolgan to‘rt xonali chog‘roqqina uyda serfarzand ukasi qaramog‘ida umr kechirib, tiqilishib yashayotgani o‘ng‘aysiz bo‘ldi. Ko‘ylak tiktirishga kelgan mijozining bir og‘iz maslahati bilan davlatdan uy so‘rab, hukumatga qayta-qayta xat yo‘lladi. Bu endi o‘n yil avvalgi gaplar.

Nihoyat, zamon o‘zgardi. Uydan umidini uzib, mayli-da, deb turgan joyida hokimiyatdan qo‘ng‘iroq qilishib, “Sizga ikki xonali uy berilasa, hujjatlaringizni yetkizing”, deb aytishdi. U yog‘ini opaning o‘zidan eshitgan yaxshi.

– Shu payti juda hayajonlanib qoldim. Lekin kimga aytsam, hovliqma-yey, kim senga uy beradi, shunchaki hujjatlaringni so‘rab qo‘yishgan-da, deya o‘timni o‘chiraverdi. Hafsalam bo‘lar-bo‘lmay, so‘ralgan hujjatlarni ukamdan bervordim. Hech qancha o‘tmay, menga Qo‘ng‘irot tumani markazidagi ko‘p qavatli uylardan ikki xonali xonadon kalitini topshirishdi.

Malika opa bunday tortiq uchun xalqni arzi dodi yerda qolmaydigan bugunidan minnatdor. Har qadamda zamonaviy o‘quv kurslari bo‘lishiga qaramay, yoniga kelgan hunartalablarning ishtiyoqini so‘ndirmaydi. O‘zi ham bekorchidan Xudo bezor, deb qarindosh-urug‘ning buyurtmasini bajaradi. Opadan qiynalmayapsizmi o‘zi, deya so‘radik.

– Nega qiynalaman? Protezim biroz eskirganini, almashtirishim kerakligini aytmasa, hammasi yaxshi...

Bir oilaning yarashtiruv ishiga qatnashganimiz bor. Kelin erining topish-tutishidan norozi edi. Savol-javoblarimizda ayol savdoga boshi, tikuvchilikka yelkasi og‘rishini aytgandi. Qo‘shningizga o‘xshab pista qovurib ulgurji topshirsangiz-chi, deganimizda, mening pistaga allergiyam qo‘ziydi-ku, degan iddaoni eshitgan edik.

Demak, farog‘atda yashay olish uchun faqat tani sihatlikkina emas, insonda shukronalik hissi ham barqaror bo‘lmog‘i zarur. Ana shu xislat umumiylik kasb etsa, jamiyatning ham to‘rt muchasi sog‘ bo‘lajak. Zero, bugun hech kim e’tibordan chetda qolayotgani yo‘q.

Muhayyo PIRNAFASOVA
Toshkent-Qo‘ng‘irot-Toshkent

BUGUNGI VATAN TAYANCHLARI – ERTANGI YURT USTUNLARI

Boshlanishi 1-sahifada.

Bu yoshda o‘smirlar uncha-muncha xavf-xatardan hayiqmaydi, mardlik va jasorat namoyon etishga intiladi.

Hozir ba’zi yoshlarning virtual makondagi olqishlarga moyilligi kuchayib, turli chellenj va vaynlar orqali “layk”lar yig‘ishga berilib qolayotgani ham sir emas. Ammo o‘z bilimi, kuchi va qat’iy intizomi bilan ulkan cho‘qqilar sari borayotgan o‘g‘il-qizlar ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. “Vatan tayanchi” harakatini muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan, katta maqsad va tashabbuslar bilan yo‘lga otlangan yoshlar jamoasi desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Shu o‘rinda ozgina izoh berib o‘tmoqchiman. Gap shundaki, “Vatan tayanchi” harakati a’zolari O‘zbekiston Respublikasining barcha qonunlarini, uning ramzlarini hurmat qiladi va ularga to‘liq rioya etadi. Jamiyatda va tengdoshlari orasida buni targ‘ib qiladi hamda shaxsan namuna ko‘rsatadi. Davlat qonunlariga va ramzlariga behurmatlik qiladigan har qanday shaxsni bundan qaytaradi, unga o‘z munosabatini bildiradi. Zarur hollarda otryad rahbarining yordami bilan bunday holatlarning oldini oladi.

Ushbu harakatni tashkil etish uchun avvalo jahon tajribasi o‘rganildi. Tarixda va bugungi kunda faoliyat yuritayotgan harbiy-vatanparvarlik harakatlari va klublarining faoliyati, dunyo hamda respublikamizdagi yoshlar bilan bog‘liq ijtimoiy muhit, muammo va ehtiyojlar tahlil qilindi. Yoshlarning vatanparvarlik tuyg‘ulari qay darajada, ularni ko‘proq nima qiziqtiradi, qanday qilib harbiy sohaga bo‘lgan e'tiborni yanada oshirish mumkin, bu harakatdan Vatan, Prezident, xalq nimalarni kutyapti, degan bir qator dolzarb savollar ustida bosh qotirildi.

Yoshlarimizda ushbu harakatga a’zo bo‘lish istagini uyg‘otish va bu harakatga qo‘shilishni ular uchun yurak amri va tabiiy ehtiyojga aylantirish ustida bosh qotirildi. “Vatan tayanchi” harakatining asosiy vazifalari aniq belgilanib, unga a'zo bo‘lish ixtiyoriy ekanligi belgilab qo‘yildi.

Birinchi navbatda Mudofaa vazirligi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari, harbiy okruglardagi mutaxassislar va Harakatning vasiylik kengashi vakillari bilan targ‘ibot ishlari amalga oshirildi.

Harakatning asosiy maqsadi va vazifalari, “Vatan tayanchi” otryadlari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar, otryad a’zolarining vazifalari, ularga beriladigan imtiyozlar keng targ‘ib qilindi.

MANFAATSIZ VA XOLIS

“Ko‘pdan quyon qochib qutulmas” degan naql bor xalqimizda. Harakat a’zolari har qanday topshiriqni jamoaviy tarzda bajaradilar. “Vatan tayanchi” harakati a’zosi shaxsiy manfaatidan ko‘ra Vatan manfaatini yuqori qo‘yadi. Boshqalarga ko‘maklashish, ularning minnatdorligi va roziligi orqali qoniqish hosil qiladi. Tengdoshlarining muvaffaqiyatlaridan quvonadi, qo‘llab-quvvatlaydi. Ko‘makka muhtoj shaxslarga, tengdoshlariga bor imkoniyati bilan yordam beradi. Bu orqali qadr-qimmatini oshiradi, xalqning hurmatiga sazovor bo‘ladi.

– Jamoalar muhitida har qanday yordamni xolis va beminnat ko‘rsatish, odamlarning duosini olish kabi kishiga ruhiy ozuqa beradigan fazilatlar tobora shakllanib bormoqda. Chunki bir insonning roziligi va tashakkuriga sazovor bo‘lgan o‘smir o‘z ishidan mamnun bo‘lib, bunday ezgu ishlarni yanada ko‘proq qilishga intiladi. Kelajakda xalq hurmati va olqishiga sazovor bo‘lishga bel bog‘laydi.

Bu borada boshlang‘ich tajriba va sinovlardan ham o‘tib bormoqdamiz. O‘tgan davrda otryad a’zolari tomonidan bir qator ko‘ngilli tashabbuslar amalga oshirildi. Xotira va qadrlash kuni arafasida birodarlik qabristonlari, xotira maydonlarini obodonlashtirishga ko‘maklashildi, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida maktablar va mahallalarda ko‘plab ko‘chatlar, gullar o‘tqazildi. Bu, albatta, harakat a’zolarining jamoaviy tashabbuslari bilan olib borildi. Mehnati singgan, peshona teri to‘kilgan, o‘z qo‘li bilan obod etilayotgan joylar o‘smirlar tomonidan nazoratga olinayotgani, vayron bo‘lishga yo‘l qo‘yilmayotgani, ayniqsa, quvonarlidir. Bora-bora bunday yoshlar o‘z yeriga, makoniga ham befarq bo‘lmaydi, Vatanning haqiqiy himoyachisiga aylanadi.



– Siz rahbar sifatida “Vatan tayanchi” otryadining mamlakatimiz hayotida egallayotgan o‘rnini qanday baholaysiz?

– Hozir dunyoda kechayotgan murakkab va tahlikali davrda “Vatan tayanchi” harakati orqali yoshlar o‘rtasidagi fidoyi, vatanparvar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarimiz bilan ma’naviy qurollangan jamoalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda ayrim g‘arazli kuchlar tomonidan ommani boshqarish uchun kiber ta’sirlar rivojlanib bormoqda. Otryad a’zolari bilan maqsadli va to‘g‘ri ishlarni olib borish orqali bunday salbiy holatlarning oldini olish, aniqlash va bartaraf qilish imkoniyati yaraladi.

Hozirgi kunda ana shunday nojoiz ishlar ta’siriga tushib qolayotgan, yetarli darajada bilim va hunarga ega bo‘lmagan yoshlar ham jamiyatimiz a’zosi hisoblanadi. Ularni jamiyatdan ajratib qo‘yish mumkin emas. Agar biz “Vatan tayanchi” harakati orqali yuksak maqsadli va bilimli yoshlar qamrovini oshirsak, bunday yoshlar o‘z tengdoshlarini to‘g‘ri yo‘lga boshlay oladi. Ular uchun o‘ziga xos bo‘ladi.

– “Vatan tayanchi” otryadlari o‘z oldiga yana qanday maqsadlarni qo‘ygan?

– Harakatning maqsadlari juda katta. Kelajakda Harakatga a’zo bo‘lish har bir o‘smirning orzusiga aylanishiga erishishimiz zarur. O‘zbekistonda unib-o‘sayotgan har bir o‘g‘il-qiz “Vatan tayanchi” harakati a’zosi bo‘lishni o‘zi uchun sharaf deb bilishi kerak.

Harakat tashkil etilgandan buyon ko‘plab ijobiy natijalarga erisha oldik. Jamoa a’zolari ichida sportchilar, bilimdon kitobxonlar, dasturchilar mavjudligi bizni quvontiradi. O‘tgan yili “Vatan tayanchi” jamoasi Qozog‘iston Respublikasining Qarag‘anda viloyatida o‘tkazilgan “Aybin-2023” xalqaro harbiy-vatanparvarlik yig‘ini doirasidagi harbiy-sport musobaqalarida ilk bor ishtirok etib, 42 ta jamoa o‘rtasida faxrli 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Shu yilning iyun oyida Qozog‘istonning Almati viloyatida 52 ta jamoa ishtirokida o‘tkazilgan musobaqada ham vakillarimiz turnikda tortilish, pnevmatik miltiqdan otish, jangovar qurolni yoyib-yig‘ish, robototexnika kabi yo‘nalishlarda yuqori natijalarni qayd etishdi. Bu gal ham vakillarimiz faxrli 2-o‘ringa sazovor bo‘lishdi. Qozog‘istondagi yig‘in davomida Rossiya, Ozarbayjon, Qirg‘iziston, Qozog‘iston davlatlari vakillarida jamoamiz faoliyati katta qiziqish uyg‘otdi. Kelajakda o‘smirlar o‘rtasidagi boshqa tanlov va musobaqalarda ham “Vatan tayanchi” jamoasi ishtirokini ta’minlash bo‘yicha amaliy ishlar olib bormoqdamiz.

– Shaxsan o‘zim “Vatan tayanchi” otryadi jamoalarining qator musobaqalardagi ishtirokini yaqindan kuzatdim. Darhaqiqat, harakatda namunali jamoaviy muhit shakllangan, o‘g‘il-qizlar jamoa sha’nini har narsadan ustun qo‘yadi...

– Albatta, jamoani shakllantirish, bor kuch va g‘ayratni bir maqsad sari yo‘naltirish otryad rahbarlari va murabbiylaridan katta mehnat talab qiladi. Harakat a’zolarida o‘zaro ishonch, hurmat va jipslikni shakllantirish, mushkul vaziyatda yelkadoshlik, sinovli pallada bir-biriga tirgak bo‘lish ko‘nikmasini oshirib borishimiz zarur.

Har yili “Vatan tayanchi” otryadlari o‘rtasida tuman, viloyat hokimlari va Mudofaa vaziri kubogi uchun “Vatanparvarlar” harbiy-sport musobaqasi o‘tkazilmoqda. Ushbu bahslarda 9 mingdan ortiq jamoa ishtirok etadi. Har bir bosqichda g‘olib bo‘lgan 14 ta jamoa Mudofaa vaziri kubogi uchun o‘zaro bellashadi. Siz ta’kidlab o‘tgan jamoaviy kayfiyat, shijoat, birdamlik mana shu musobaqalarda yanada mustahkamlanadi.

– Bir vaqtlar jadid bobolarimiz ham ilmli va serg‘ayrat yoshlarni o‘qitib, millat ma'naviyatini yuksaltirish uchun bel bog‘lagan edilar. “Vatan tayanchi” otryadi yo‘l xaritasida ham bunga alohida urg‘u berilganidan xabarim bor.

– Harakat a’zolari bajara olmaydigan vazifaning o‘zi yo‘q. Chunki uning tarkibida turli sohalar bo‘yicha qobiliyat va iste’dod sohibi bo‘lgan yoshlar juda ko‘p.

O‘qish – Harakat a’zosining asosiy mashg‘uloti hisoblanadi. Lekin bu ertadan kechgacha partada o‘tirib o‘qish, degani emas. Yigit-qizlarimiz, eng avvalo, har qanday fanning hayotda kerakligini, uning asl mohiyatini o‘rganadi. Har bir fanning o‘z kelajagi uchun muhim bo‘lgan jihatlarini chuqurroq o‘zlashtirib boradi.



Kuni kecha muhtaram Prezidentimiz “Vatan tayanchi” harakati faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha yana bir muhim qarorni imzoladilar. Unga ko‘ra otryadlarning bir nafar eng a’lochi va faol a’zosi Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarning oliy harbiy va harbiylashtirilgan bilim yurtlariga o‘qishga kirish uchun o‘zi to‘plagan balining 5 foizi miqdorida qo‘shimcha imtiyozli tavsiyanomaga ega bo‘ladi. Bu degani, har yili o‘n minglab yoshlar orasidan eng kuchlilari maydonga chiqadi, saralanadi va kelajakda professional Vatan himoyachisiga aylanadi. Eng muhimi, shu tariqa kelajakda milliy armiyamiz saflarida qalbi pok, g‘ururi mustahkam, zuvalasi pishiq, Vataniga sadoqatli o‘g‘il-qizlar soni ortib boradi.

Bobur ELMURODOV suhbatlashdi.



MARG‘ILONDA UVAYSIYNI KO‘RDIM

Boshlanishi 1-sahifada.

Spektaklni sahnalashtirish jarayonida undagi voqealarga mos milliy maqom yo‘nalishidagi qo‘shiqlardan foydalangan rejissyor Doston Haqberdiyevning mahorati tahsinga loyiq. Musiqalarni sahnaga tayyorlagan O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Muhsinjon Mo‘minovga alohida tashakkur!

Birinchi ko‘rinish Uvaysiyning “Ko‘rmadim” radifli g‘azali bilan boshlanadi. Undan keyin “Chorzarb”. Amiriy g‘azali, xalq kuyi bilan. Liboslar dizayni bilan Rayhon Yo‘ldosheva, raqslar bo‘yicha Nabijon Rahimovlar ishlagan. Sahnalashtiruvchi rassom Ixtiyor G‘oyipovning mehnati ham alohida e'tirofga munosib.

Spektakl yarmida taxt o‘rtasidan bo‘linib ketadi. Bu kimning g‘oyasi (muallif, rejissyor yo boshqa) bilmadim, ammo juda puxta o‘ylangani shundoq ko‘rinib turibdi. Mazkur holat xonlikdagi vaziyatni bir qarashda ochib beradi. Taxtning bir bo‘lagida Uvaysiy, bir bo‘lagida o‘g‘li. Bir-biriga talpinadi, yetolmaydi. Sahna markazida – oq kiygan ikki oychehra. (G‘azal bandlari ikki misradan bo‘lishini eslang!) O‘rtada Uvaysiy. Bir tomondan Muhammadjonning bolaligi, bir tomondan yigitligi. Sho‘rlik ona goh unisiga, goh bunisiga talpinadi. Bu holat g‘azalning maqta’siga dovur davom etadi. Avji ham shunda!

Meni bekas Uvaysiy yig‘lag‘ayman
ro‘zi shab tinmay,
Uyimning ziynati, ko‘z ravshani,
xonimni sog‘indim.

Zolimlar dastidan farzand dog‘ida qolgan volida faryodi butun zalni titratib yubordi. Burchak-burchaklarda onaxonlar piqqillab, ro‘molining uchini ko‘ziga bosib-bosib oladi. Hah, onajon xalqim! Birov nola qilsa, jim qarab tura olmaydi. Hatto u sahna asari bo‘lsa ham! Qo‘shilib yig‘lab-yig‘lab oladi. Sal qolsa, sahnaga o‘zini otib, otinoyini bag‘riga bosgancha: “Qo‘ying, aylanay, bo‘ldi! Bunaqada o‘zingizni oldirib qo‘yasiz!” deb yuboradiganlar ham talaygina. Ana san’at! Ana xalq! Ana hamdardlik!

Darvoqe, ko‘rinishlardan biri tugal so‘fiyona tus oladi. G‘ira-shirada Uvays Qaraniy, Ibrohim Adham, Alisher Navoiy, Shoh Mashrab siymolari toliba – Jahon otin Uvaysiy atrofida aylanib, unga ma’naviy yo‘lboshchilik qilishadi. Bosh qahramon ulardan ibrat oladi, savol beradi, bahslashadi, o‘git va tanbeh eshitadi.

Yana bir parda Qo‘qon o‘rdasida Amiriy ahli ilmlar, san’at va adabiyot namoyandalari bilan majlis qurgan chog‘larini tasvirlaydi. Amir Umarxon bir paytlar Hirotda Alisher Navoiy boshchiligida tuzilgan “Nafis majlislar”ga Husayn Boyqaro homiylik qilgani, o‘zining bu holga havasi borligi va Qo‘qonda ham shunday “Majolis un-nafois” bo‘lishini istagani xususida gapiradi. Kengash ahli buni ma’qullaydi. Ammo yig‘inning ba’zi a’zolari ayollar she’riyati va dunyoqarashini keskin tanqid ostiga olib, xonlikda ojizalar faqat uy-ro‘zg‘or ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgani ma’qul, degan mazmunda gapiradi. Tabiiyki, Amirning bundan jahli chiqdi va o‘z e’tirozini chiroyli dalillar bilan ifoda etdi. Aynan nima deganiga qiziqqanlar, marhamat qilib, Marg‘ilondagi musiqali maqom teatriga qadam ranjida qilsun!

Asarni ko‘rish mobaynida boshimda bir fikr g‘ujg‘on o‘ynadi: “Mazkur spektakl Marg‘ilondan boshqa joyda qo‘yiladirg‘on bo‘lsa, bu qadar go‘zal va latif chiqmas. Zotan bu tuproqda Uvaysiy vorislari kamolga yetgan, har birida uning yuragi urib turibdi, nafasi ufurib turibdi. Ayollardagi vodiycha nazokat, marg‘iloncha lutf, nozik qadam olishlar, erlardagi salobat hamda maqom ijrosidagi an’anaviylik o‘sha davr muhitini yaxshiroq his etishga yordam beradi. Bu ham Samarqand nonini boshqa yerda mazasi o‘xshamasligiga monand hodisa!”

Siz ham keling, ko‘ring, ana undan keyin “Marg‘ilonda shunday teatrimiz bor ekan-u, biz bilmay yurgan ekanmiz!” deb yuborganingizni bilmay qolasiz!

Ana endi so‘ngso‘z. Kimsan Muhammad Yusuf Marg‘ilonday joyga kelib, birgina Kumushni ko‘rib, qaytgan bo‘lsa, faqiringiz bunda Uvaysiyni ko‘rdi, Nodirani ko‘rdi, Amiriyni ko‘rdi! Toleyimdan aylanay!

Shahriyor SHAVKAT

YANGI NASHR



Taniqli yozuvchi Sobir O‘narning “Tanlangan asarlar” kitobi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan nashr etildi. Unga adibning qissa va hikoyalari kiritilgan bo‘lib, saylanmada o‘ziga xos jozibali tilda bitilgan hikoyalar ustuvorlik qiladi.

Kitobda yana bir jihat o‘quvchi e’tiborini tortishi aniq, ya’ni asarlarda ijtimoiylik bilan bir qatorda ma’naviy, oilaviy, axloqiy va sevgi-muhabbat kabi muhim va eskirmas mavzularga ham keng urg‘u berilgan.

SO‘Z MUSAVVIRI

“Kunsuluvning sirli xatlari”, “Intizor”, “Farishta”, “Yigitlarning biri”, “Bibisora” kabi qissa va hikoyalarni yuqoridagi fikrlarimiz tasdig‘i sifatida ko‘rish mumkin.

Adibning mahorati, so‘z tanlashdagi sinchkovligi har bir bitikda namoyon bo‘lib turadi. Qahramonlarining o‘ziga xos xarakterini kitobxon ko‘z o‘ngida yaqqol ko‘rsata olgan yozuvchi, asar kompozitsiyasini ham mahorat bilan chiza bilgan. Sobir O‘nar ijodida samimiy, tanti va sodda qishloq odamlari qalamga olinib, ularning yuksak insoniy fazilatlari ulug‘lanadi. Go‘yo hikoya va qissa qahramonlari yon-atrofingizda yashayotgan odamlardek tuyuladi. Adib asarlarining hayotiyligi ham ayni shu jihatlarda o‘z aksini topgan.

Yozuvchi uslubining boshqalardan farqlanib turadigan yana bir xususiyati shuki, u har bir asarda o‘quvchi kutmagan yechimlarni taqdim etadi. Yaxshilik bilan tugaydi, deb o‘ylagan asaringiz yakunida qahramonning fojiaviy taqdiri intihosiga guvoh bo‘lishingiz mumkin.

Kitobni mutolaa qilgan o‘quvchining dunyoqarashi, ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga munosabati o‘zgara boradi. Chunki adib har bir qahramoni qismati misolida o‘quvchi hayotiga, uning ko‘ngil kechinmalariga ko‘zgu tutadi.

Jahongir SOIBJONOV,
O‘zMU talabasi

HIKOYA

SENI DEYMAN

Qulman OCHIL



U kafening gavjum eshigi tomon mahzun nazar tashladi va nogahon yuragi, yo‘q, butun vujudi muzlab ketganday bo‘ldi: yal-yal yonib bir juvon kirib kelardi! Ko‘zlariga ishongisi kelmadi: Ruxsoraning quyib qo‘yganday o‘zi! Boshyalang, durkun, chiroyli yuz-ko‘zlarida o‘ziga yarashgan o‘sha shirin tabassum. Uch yil burun uni zor qaqshatib ketgan jufti haloli! O‘zining Ruxsorasi!

...Mayin yog‘ayotgan yomg‘ir ko‘klamni qo‘msagan yerlarga, sarg‘ayib so‘ligan maysalar orasidan ma’yus mo‘ralayotgan qabrtoshlarga, daraxtlarning yalang‘och novdalariga, yaltiragan xoli-xilvat ko‘chalarga, qad kerib turgan oynavand binolarga go‘yo dardini aytib shivirlaydi. Shoshilmasdan, alaxsimasdan, shabadaning ra’yiga qaramasdan shivirlaydi. Dardki, hazin qish kunlariga xos – parishonlik, bezovtalik, dilgirlik, besaranjomlikka to‘la.

Bunday lahzalarda nimani o‘ylasang, qay birishga qo‘l ursang, qay eshikka bosh suqsang – hammasi bachkana va ma’nisizdek tuyulaveradi. Illo, ko‘ngling nima tusayotganini o‘zing bilmaysan. Ko‘ngil degan charog‘on go‘shani zulmat bosganday. Yorishmaydi. Ayniqsa, uzundan uzun zimiston kechalarda. Peshona, deysan, jon omonat, fano muqarrar, deysan. Har kimga nasib qilgani, deysan. O‘tgan o‘tdi, sabrli bo‘l!.. Yana nimalardir deb motamzada ruhingga dalda bergan bo‘lasan, koshki, kor qilsa, dilingga miltillagan bir shu’la insa.

Seni judolik deb atalmish girdibodga tashlab ketgan insonning nuqsonlari ham endi fazilat bo‘lib tuyulaversa, sog‘inch-u alam yuragingga sitam nayzalarini beayov sanchaversa, netasan? Qochib qayga borasan-u kimdan panoh istaysan? Ayniqsa, yoshing qaytgan, salomatlik deb atalmish mulkingning qolgan-qutganidan boj-xiroj to‘lashing tezlashgan bo‘lsa.

Ikki chetida salobatli imoratlar tizilib turgan keng ko‘chaning tekis yo‘lkasidan bir-bir bosib borayotgan barvasta kishining xayolidan shunday mulohazalar o‘tadi. Qomatiga yarashgan lojuvard kurtkasining kulohdorini manglayigacha yopib, baquvvat qo‘llarini cho‘ntagiga solib olgan bu odam hozirgina mozoristondan chiqdi. Yomg‘ir quvmaganida hali-veri u yerni tark etgisi yo‘q edi.

Shoshilib qayerga borsin. Bugun – 8-fevral. Komil Qoriyevning (teng-to‘shlari davrasida – Komil Qorining) ko‘z ochib ko‘rgani bandalik qilgan kun. “Qori” deb atashlariga o‘zining tarxashlikdan uzoq vazmin fe’li, aqlli ko‘zlari, salobatining ham daxli borligini biladi. Bilgani uchun unchalik dimog‘-firoq qilib o‘tirmaydi. Ko‘nikib ketgan.

Bu sukunat olamiga ilgari kunda-kunora kelardi. Endi – haftalar, oylar, yillar o‘tgani sayin qadami siyraklashib borayotir. Tiriklikning neki tashvishi bo‘lsa, unga ham begona emas. Qachon, qayerda yurmasin, oyog‘i shahar zaminiga tegishi bilan shu sokin dargohga shoshiladi.

– Ruxsorani ko‘rib kelmoqchiman, – deydi xuddi tirik odam haqida gapirayotganday. Bu so‘zlar endigi zavjasi – Zohidaning qulog‘iga hali singishmagan, duvva qizarib, eri kundoshinikiga ketayotganday mijjalari pirpiray boshlaydi: “Yetar endi? Qachongacha axir?..” Shunday demoqchi bo‘ladi-yu, haddi sig‘maydi. Xayolidan nedir andishalar o‘tadi, chamasi. Tug‘yonida bosh ko‘targan tahlikali norozilikni tili navozishga aylantirib yuboradi: “Xo‘p-xo‘p!.. Hozir!” Erining yaltiragan poyabzalini shosha-pisha yana bir bor artib, eshikni keng ocha turib, aybdor ohangda qo‘shib qo‘yadi: “Havo salqinga o‘xshaydi!”

Komil Qori uning ravish-raftorini xayolan Ruxsoraga taqqoslab, Zohida esa o‘zini marhumadan yaxshiroq ko‘rsatishga urinib charchaydi. Rahmatli shoshilmasdan gapirar edi. Bu – bidir-bidirroq. “Tezotar”. Gaplarini birdaniga anglab olish qiyin. Erining istehzoli nigohiga ko‘zi tushsa, battar dovdiraydi.

Sochiga allaqachon oq oralagan erkak tul qolsa, xotin kishining tug‘masi-yu befarzandiga rag‘bat bildiradi. Zohida iqtisoddan ilm qilaman, olima bo‘laman, deb umrining yarmini so‘qqabosh o‘tkazgan. Komil Qori og‘iz solganida aqlli ayolning gapini aytgan: “Avval rahmatli Ruxsora opamni birga ziyorat qilsak devdim!”

Komil Qoriga marhuma doim yo‘liga ko‘z tikib, zor-intizor kutayotganday tuyulaveradi. Ilgarigiday, yayrab suhbatlashgisi keladi.

“Qalaysan, Ruxsorginam? – deydi dilkashlik bilan o‘zini o‘zi ovutmoqchi, chalg‘itmoqchiday. – Yaxshimisan?”

Shunday deydi-yu, filhol pastki labini tishlab qoladi: “Tuproqqa qorishib yotgan odamning ahvoli qanday bo‘lishi mumkin? “Yaxshimisan”ga balo bormi? Ajal bilan o‘ynashyapsanmi?”

O‘rinsiz so‘zlari uchun marhumadan kechirim so‘rashga tushadi. Ruxsora javob bermaydi. U endi hech qachon javob bermasligini, berolmasligini anglagan zavjining xo‘rligi keladi. Ikkalasining mas’ud kunlarini eslashga urinadi. Uringani sari qaroqlarini bosib kelayotgan ashk daryosining shiddati kuchayaveradi. Uning yig‘loqi bo‘lib qolganidan xabar topganlar zimdan miyig‘ida kulishini (“Ha endi, akayam qaridi-da! Qachongi Komil Qori!”) allaqachon sezgan. Qo‘l siltaydi: tanasi boshqa dard bilmas! Muztarligi ortadi.

Qabristonda o‘y-xayol bosaveradi. Ruxsorani birinchi marta uchratgani, birinchi bor gap qotgani ko‘z oldiga keladi. Gaplashar ekan, qizning yuz burib ketishidan xavfsirab turganlarini yuragi hapriqib eslaydi.

Uni metroda ko‘rib qolib, pedinstitutning o‘zbek tili va adabiyoti fakultetigacha izidan borgan. Qiz sezgan. Sezganini sezdirish uchun hurkak nigohidan shunday bir maftunkor tabassum hadya qilganki, eslaganida haligacha Komil Qori bo‘zboladek ich-ichidan entikib ketadi. Ruxsora keyinchalik opasi bilan uning ishxonasiga – Me’morlar uyushmasiga borganlarini va orqavarotdan surishtirganlarini kula-kula aytib bergan.

– Ko‘zga yaqin yigit ekan, – degan opa bo‘lmish. – Senga o‘xshagan xushtorlari yuzdan oshsa kerak.

– Mingdan oshsayam mayli!..

– Ertaga bir kuni o‘zining G‘eloniga ko‘chib ketsa, netasan? Kelopti, boropti, deb yurasanmi?

– Yursam-chi?..

Ijroqo‘m bergan boshpanasiga kuyov o‘ylabnetib o‘tirmasdan “Shohsaroy” degan shohona nom bergan. 1966-yili zilzilada vayron bo‘lgan Toshkentga finlar sovg‘a qilgan yog‘och uy. Ikkinchi qavatdagi katalakdek pastqam xonalar, u yoqdan bu yoqqa burilishing mahol yo‘lak, chumoli yursa ham g‘achir-g‘uchur qiladigan omonat zinalar... To‘kilay deb turgan o‘sha imorat ikki yoshning ko‘ziga shohlar o‘rdasidan ham mahobatli va fusunkor ko‘ringanida, kuyov o‘zini xoqonlardan ham qudratliroq va baxtliroq his qilganida hazil yo‘q. Eslasa, haligacha zavqi ummondek to‘lib-toshadi. Avval-oqshomlari ishdan qaytgan xoqonni dunyodagi eng aqlli, eng go‘zal, eng sarishta kelinchak barqut liboslarda boshi osmonlarga yetib kutib olgan! Sohibi saltanat ostonadayoq unga burgutday tashlanar ekan, ikkisi oppoq choyshablari, parq-u yostiqlari ko‘zni qamashtiruvchi qo‘sho‘rinli joyxobiga yetib borolmagan! Poltaxtalari lopillab turgan yo‘lakdagi qirmizi poyandozning ustida bir-biriga ilondek chirmashib ketganki, qoni vulqonday qaynab yotgan, bir-biriga tashna ikki navqiron vujuddan boshqa yana nimani kutasiz!..

– Sog‘inib o‘lay dedim! – derdi tizginsiz ehtiroslar asiriga aylanib bo‘lgan xoqon.

– Qo‘ysangiz-a! – derdi kelinchak g‘amza-adosi bilan. – Har kuni yoningizdaman-ku!..

– Ko‘z ochib yumgunimcha sog‘inaversam, nima qilay?..

– Bu ketishda belimni sindirib qo‘yishingiz tayin!..

– Yo‘q narsani qanday sindirama-an!.. Qani, beri kel-chi! Farishtada bel nima qilsin!..

Ruxsoraning mayin va bosiq tabassum arimaydigan yorug‘ ruxsorida asilzodalarga xos sehr, nur bor edi. Palagi toza, hayotning past-u balandini ko‘p ko‘rgan, turmushning ma’nisiga yetgan odamoxun oilaning farzandlarida bo‘ladi bunday ulug‘vor xotirjamlik. Ayni ilohiy tal’atning qarshisida har qanday terisi qalin kas birdan hovuridan tushib, muloyim tortib qoladi.

Komil Qori uning ma’yuslik muhrlangan charos ko‘zlariga yana bir bor termilish uchun qolgan umrini garovga qo‘yishga rozi. Qani endi, iloji bo‘lsa! Shuncha yil birga yashabdilar-u, uning biror gapi, biror qilig‘i, biror aybi malol kelmapti. Doim erining ko‘ngliga qarardi. Endi o‘ylashicha, bir yigitning baxti, omadi, davlati bundan ortiq bo‘lmas!

Boshiga judolik tushgan kunlari – har qadamda, har nafasda, har bir ayol ko‘ziga Ruxsora bo‘lib ko‘rinar, qulog‘iga chalingan har bir sas uni eslataverar edi: qushlar chug‘ur-chug‘urida – Ruxsora, idish-tovoq sharaq-shurug‘ida – Ruxsora, bolalarning qiyqirig‘ida – Ruxsora, eshikning g‘ichirlashida – Ruxsora, shabada olib kelgan gul iforida – Ruxsora. Go‘yo, Ruxsora dunyoni sehrlab, umrbod o‘ziniki qilib, qulflab-muhrlab ketgan. Faqat o‘zi yo‘q!

Butun irodangni ishga solib, ayriliq girdobidan qutulmoq chorasini izlaysan, tirishasan-tirmashasan, ko‘zingga ko‘ringan xasga joning halqumingga kelib yopishasan, qani endi nafi tegsa. Tegmaydi. Tegmagandan keyin umidlaring uzilib, o‘zingni uning mayliga qo‘yib berasan. Tortib, yutib ketadi. Yutib ketgani shulki, ertalab yuzingni chayishga o‘zingda hafsala topolmaysan. Go‘yo, gir-atrofdagi hamma narsa yonib kul bo‘lgan-u bu yorug‘ olamda tanho o‘zing qora qurumga botib, tentirab qolgansan. Faqat uni o‘ylaysan, faqat uni eslayverasan. Birovni ko‘rishga, hatto jajji nevarang bilan ovunishga o‘zingda kuch-quvvat, hafsala topolmaysan.

Komil Qori ko‘cha chetidagi “Sayyor” kafesiga burildi. Oyoqlari negadir uni uyiga emas, shu manzilga boshladi.

* * *

O‘sha yili qahraton achchiq kelib, qor juda mo‘l yog‘di. Bog‘-rog‘, dala-dasht, ko‘cha-ko‘ydagi dov-daraxtlar o‘z yo‘liga, ne bir xonadonlar, imoratlar ichidagi gul-u butalarni ham sovuq olib ketdi. Qarshida xizmat safarida yurgan Komil Qorining ko‘richagi buralib, g‘ujanak bo‘lib qoldi. Avval jarrohning e’tiboriga, keyin tig‘ning tagiga tushdi. Ichagi yorilib ketishiga bir bahya qolgan ekan. Operatsiya xiyla cho‘zilgani xotinining qulog‘iga yetmay qolarmidi. O‘sha zahoti yo‘lga chiqqan Ruxsora tun og‘ganda poyezddan oyoqyalang tushgani tole ulardan yuz o‘girib, qurbonlik so‘rashga o‘tganidan belgi ekan.

Ikkiga bo‘lingan sharfini oyoqlariga paytavadek o‘rab, to‘ziy boshlagan eski kalishda tizza bo‘yi qor kechib kelgan umr yo‘ldoshini ko‘rgan eri ko‘richagi yorilib ketmaganidan pushaymon yegani rost. Yangigina etigi bilan sumkachasini poyezdda kimdir ilib ketibdi. Uning kechasi soat uch yarimda poyezddan oyoqyalang tushib, yuz metr naridagi vokzalgacha qanday yetib borganini tasavvur qilish qiyin. Muz, qor, izg‘irin, temiryo‘l vokzali undan battar, sovuq. Isitishga ko‘mir berilmaydigan dargohning boshlig‘i sho‘rlik juvonning oyog‘iga qo‘lbola pechka qo‘yib beradi. Etik va’da qilmaydi-yu, “birorta kalishning go‘rini qazish”ga astoydil urinadi: “Ungacha mana bu choydan ho‘plab, sal isinib oling, qizim!” Magazinlar qurib-qaqshab yotgan mahallar edi-da. Sovuqsiragan ayol vokzal hovlisidagi qo‘l chayadigan joyga ham borolmasdan betoqatlikda tong ottiradi. Ertalab boshliqning xotini marhamat qilgan eski kalishni oyog‘iga ilib, eri yotgan shifoxonaga yo‘l oladi. Uning yuzi lovullab ketgan! Ko‘zini ochishga madori qolmagan. Eski dardi – bodi qo‘zigan. Ikki oyoqda borgan ayol bir oydan so‘ng uyiga to‘rt oyoqda – qo‘ltiqtayoqda qaytadi. Yana bir oycha shifoxonada, so‘ng har yili bemorxona-yu sihatgohlarda davolanadi. Bir muddat tuzalganday, maktabidagi ishiga qatnay boshlaganday bo‘ladi. Lekin so‘lib boraveradi. Bilagi, tizzasi va bo‘ynida bezlar paydo bo‘lib, ravon qaddi o‘ziga bo‘yinsunmay qo‘yadi. Ikki o‘g‘lining bir kunda o‘tgan to‘yi ham tatimaydi.

Parvarishiga ko‘nglidagiday oqsoch topilmaydi. Birining qo‘li egri chiqadi. Boshqasi bemorga tuvak tutishdan orlanadi. Uchinchisi Komil Qoriga ochiqchasiga ko‘z suzishdan tiyilmaydi. Talabaligini tugatmagan qo‘sh kelinning galma-gal navbatchiligida ham ma’ni chiqmaydi. Ishiga andarmon bo‘lib yuravergan er bo‘lmish bir kuni qarasa, ayolining belginasi choyshabga yopishib, eti pishib qolgan.

Bardoshi baquvvat Ruxsora o‘ksinadi, lekin zorlanmaydi.

Ota o‘g‘illariga aytadi:

– Bolalarim, endi sizlarga quvvat, topgan-tutganlaringga baraka bersin. Men endi onalaringga qarayman.

Me’morlar uyushmasidagi loyiha rahbarligidan bo‘shaydi va ayolining yonidan bir qadam ham jilmaydi. Ichi to‘la beqiyos-u beandoza hangoma. Ilgari nazariga ilmagan narsalardan sevinch-saodat, taskin-tasalli topishni tindira boshlaydi. Oila ahli ish, o‘qish, bog‘chasiga ketganida ayolini yelkasiga opichlab, tuyaday lo‘killaydi. Do‘xtir shunday maslahat bergan: qoni yurishadi! Hovli qiyqiriqqa to‘lib, dardlar unutiladi, qonlar ko‘piradi!

Kinoteatr degan maskanning bo‘sag‘asini bosmaganiga “necha asr, necha yil bo‘lgan” o‘tkir me’mor “Panorama”ga chipta buyurtma beradigan, teatrlarning repertuari bilan qiziqadigan odat chiqaradi. Bir kuni – konsertga, boshqa kuni badiiy ko‘rgazmaga ayoli “taxtiravon” – falajaravada, sadoqatli tansoqchisi yonida, yasan-tusan qilib ketayotganini ko‘rgan qo‘ni-qo‘shnilar bir zum to‘xtab, zavqlanib salom beradi. Ba’zilari egilib ta’zim qiladi, alqaydi.

* * *

Uni kafe mulozimlari tavoze bilan kutib oldilar. Salobatli mehmon bosh silkib salomlashgan bo‘ldi-da, to‘rga tomon ko‘z yugurtirdi.

– Joyingiz bo‘sh, – dedi qotmagina mulozim va yolg‘ondan o‘zini tiya olmadi: – Siz uchun ataylab band qilib qo‘yganman!

Ruxsoraga to‘rdagi ikki kishilik stol yoqardi. Ko‘cha-ko‘yni tomosha qilib o‘tirishga qulay. Falajaravaga kunlari qolganidan keyin ham, to xastalikning quvvati oshib, qoshiqni ushlash azobga aylangunicha, bu yerga kelishni kanda qilganlari yo‘q. Yana boraylik desa, Ruxsora yig‘lab yalinar edi: “Iltimos, meni qiynamang!” Barmoqlarining bo‘g‘imlari ham qotib qolgach, xotiniga ovqatni o‘zi yedirib-ichirib qo‘yadigan bo‘ldi. O‘zi yuz-qo‘llarini yuvib, to‘kila boshlagan chiroyli tishlarini avaylab tozalar, pardoz-andozini ham o‘zi uddalardi. Labbo‘yoq, atir-upa, surma-surug‘i – hammasining eng saralarini olib kelardi. Hamshiralikda sochi oqargan oqsoch o‘ris kampirga ishonmas, tomirga yuboriladigan ninadorisini ham o‘zi amallardi.

– Men sizni baxtli qilolmadim, – derdi Ruxsora o‘kinib.

Bunday paytlarda u tiz cho‘kardi-da, ayolining qo‘llarini o‘pib, ko‘zlariga surtardi:

– Bu dunyoga yuz marta kelsam, yuz marta ham seni deyman!

Bora-bora dard butun tanasiga yoyildi va ayol bo‘ynini ham qimirlata olmay qoldi. Luqmani chaynash azobga, yutish undan battar ko‘rgilikka aylandi.

– G‘amsiz boshingizni g‘amxona qildim, – derdi tabassum arimaydigan yuzlari qoshiqdaygina bo‘lib qolgan ayol. – Qizimiz bo‘lgandayam shunchalar qiynalmas edingiz.

– Bu qo‘shiqni unut, – deya javob qilardi eri. – Birinchi marta uchrashganimizdan beri senga mehrim kamayganini sezdingmi?

– Yo‘q!

– Yana yuz yil yonimda bo‘l, sezmaysan! Dard – mehmon. Bir kun kelgan bo‘lsa, bir kuni ketadi.

Lekin bodi beayovning oyoq olishi qaltisligini, osonlikcha kelib-ketmasligini, ketgudek bo‘lsa ham, bemorni o‘zi bilan birga olib ketishini sezib turar edilar.

Tildan qolib, qulog‘i og‘irlasha bordi. Gapirayotgan odamning yuziga sersolib tikilar ekan, nima demoqchi bo‘layotganini anglashga urinardi. Kechalari og‘riqning zo‘ridan ingrar, ko‘zlaridan yoshi sel bo‘lib oqardi-yu, biroq oh-vohga erk bermas edi. Yashashdan naqadar bezgan bo‘lsa-da, na bir shikva – shikoyat, na bir zorlanish, na bir nolayi afg‘on bilan o‘zgalarning yurak-bag‘rini dog‘ladi!

Bir kuni shotut yegisi kelayotganini aytdi. Qahraton qishda shotutni topish osonmi? Farg‘onada bir kampirda bor ekan. Jo‘natdi. Jo‘natish oldidan momo bechora so‘radi:

– Kelin shotutga boshqorong‘i bo‘lganmilar, o‘g‘lim?

– Yo‘g‘-a. Bir xumori tutibdi-da.

– Ha-a. Betobroqmilar deyman?

– Shunday, onajon?

– Siz kimi bo‘lasiz? Zavjimi?

– Ha. Nima edi?

– Barakat toping, bolam! Bir banka saqlab qo‘ygan edim. Hammasini yuboraman. Pul-mulingizni qo‘ying. Taksichiga yo‘lkirasini bersangiz, bas.

Shotut – Ruxsoraning so‘nggi nasibasi, so‘nggi kunlari yaqinlashib qolganini hamma anglab turardi. Eri so‘radi:

– Yana nima istaysan, onasi? Ayt, tortinma!

Iymana-iymana, har bir so‘zni yutina-yutina xirillab aytdi. Ikki o‘g‘li, ikki suyangan tog‘i “Tez yordam” mashinasini boshlab keldi. Ruxsora, oyog‘ini bosolmasa-da, to‘ng‘ichi olib bergan guldor oq burki etigini kiyib, yonida eri bilan qalin ko‘rpachalar solingan zambilaravali o‘sha “Tez yordam”da, o‘g‘illari, kelinlari, nevaralari – butun oila o‘zlarining mashinasida teleminoraga jo‘nadilar.

U yerda azamat mulozimlar kutib turishgan ekan. Zambilaravada minorayi kalonning eng yuqorisiga – aylanadigan restoranga olib chiqdilar. Rangi qatiq zardobidek sarg‘ayib ketgan bemor qorga burkangan ona shahrini, o‘tkinchi dunyoni go‘yo osmon-u falakdan zavqlanib tomosha qildi. Madorsiz oyoqlari ostida zangori olam yastanib yotar, ayol unga suqlanib, entikib to‘ymas edi! Mijjalaridan toshib chiqqan tomchilarda yer-u osmon jilvalanganday bo‘lardi.

Ikki kundan so‘ng, tong yorishar chog‘da, qoqshol qo‘lini erining baquvvat bilagiga ohista qo‘yib, zaif, g‘oyat zaif ovozda shivirladi:

– Men ketyapman... Rozi bo‘ling, Hayotim!..

Va ayol bu dunyoni tashlab ketadi. Ajabki, uning tirikligida muzday qo‘llari va yuzlariga umri adog‘iga yetganidan so‘ng latif bir iliqlik yugurganday edi.

Keyin odamlar guv etib keladilar-da, uning yostiqdoshini yelkalarida guvva ko‘tarib ketadilar. Shosha-pisha kovlangan yerga topshiradilar va guv etib tarqaladilar. Guvullab turgan uy, guvullab turgan hovli, kechagina uning oyoqlari ostida guvullab yotgan ulkan shahar huvullab qoladi. Go‘yo ayol charog‘on dunyoning chirog‘ini o‘chirib ketgan. Chirog‘idan ayrilgan eri qadam bosishdan cho‘chib, turtinib-surtinib, dovdirab yuradigan keksa basirga o‘xshab qoladi.

* * *

Ofitsiant kelib, yengil ta’zim qildi:

– Har doimgidekmi, doda?

Doda tasdiq ma’nosida bosh irg‘adi:

– Sho‘rva, – dedi xomush. – Konyak. Yuzta. Yo‘q, ikki yuzta. Ba’daz achchiq qahva.

Ruxsora bilan kelganlarida ichmasdi. So‘ng-so‘ng yolg‘iz o‘zi kelib, so‘ppayib o‘tirganida, ozozdan oladigan bo‘ldi.

Komil Qori eshik tomon mahzun nazar tashladi va nogahon yuragi, yo‘q, butun vujudi muzlab qolganday bo‘ldi: yal-yal yonib bir juvon kirib kelardiki, Ruxsoraning o‘zi! Uch yil burun erini zor qaqshatib ketgan xasmi haloli! O‘zining Ruxsorasi!

Juvon uning yonidan bee’tibor o‘tib, oynavand devorga taqab qo‘yilgan stol bo‘yidagi yumshoq o‘rindiqqa o‘zini tashladi. Qarshisidan burni o‘roqning uchidaygina bir yigit joy oldi.

Komil Qorining xo‘rligi keldi: yana tush ko‘ryapman deb o‘yladi o‘kinch bilan. Ro‘yoda Ruxsoraning poyiga tiz cho‘kib, to‘tiyo rang harir ko‘ylagining barlaridan o‘pganlari, nafis qo‘llarini ko‘zlariga suyib surganlari xotiriga keldi. Shu tobda bunday qila olmas, ayolning yonida begona erkak o‘tirar edi.

Sirtdan qaraganda, ular er-xotinga ham, unda-bunda xufiyona uchrashib yuradigan jazmanlarga ham o‘xshamasdi. Suqsurday juvonni arg‘amchiday ingichka yigit bilan bunday alfozda ko‘rish ajablanarli. Balki, rostdan ham eri, ehtimol, shunchaki tanishidir. Ehtimol, o‘z vaqtida bir-biriga yetolmagan sho‘rpeshonalardir. Ikkisi ham o‘ttizning nari-berisida. Yigit juvondan ko‘z uzmas, jag‘i u yoqdan bu yoqqa tinimsiz borib-kelardi-yu nimani chaynayotganini o‘zi sezmasdi, chamasi.

Juvon dag‘al to‘qima jemperini yechib, kursi suyanchig‘iga tashladi. Komil Qorining ich-ichidan ko‘tarilgan xo‘rsiniqning taftiga qog‘oz tutilsa, tutab ketardi. Bu oppoq bilaklar, ingichka bo‘yin, muloyim qo‘llar... Ruxsoraning o‘zginasi. Faqat rahmatli ming och bo‘lsa ham, taomni nazokat bilan mayda chaynab yerdi. Ichimlikni nafis lablarining uchida ho‘plardi. Bu ayolning lunji bo‘sh turmas, og‘zini kappa-kappa ochib, chayla ko‘rmagan cho‘ponlarday chaynardi. Tanobiy xonaga damo-dam kirib-chiqib turgan mijozlarga ham, mulozimlarga ham parvosi yo‘q.

Komil Qori ikki yoshning kasb-korini taxminlashga o‘tdi. Ikkalasi ham nari borsa, o‘rta maktabni chala-chulpa bitirgan. Yurish-turishi, kiyinishi, o‘zini tutishi aytib turibdi. Qo‘l uchida kun ko‘radigan serfarzand oiladan chiqqan. Bir qarashda, juvon hamshiralarga ham o‘xshab ketadi. Kasal ko‘raverib, oh-vohni eshitaverib, diydasi qotib ketgan.

O‘tli nigohlarini juvondan uzmay o‘tirgan yigitning qo‘llari qizlarnikiday nozik. Irodasi sustroq, tanbalroq odamlarning qo‘lidan. Yelkalari ensiz, o‘zi cho‘pdek ozg‘in. Avtonozirmikin? Yo‘q, shoshqaloqligi, alanglashiga qaraganda, birorta eski mashinaning ijarachi-kirakashi bo‘lsa bordir. Kirakash desang, konyakdan tap tortmay urayotir. Kim bo‘lganda ham, juvon uning aql-hushini olib qo‘ygani aniq.

Yomg‘irning shiddati kuchayib, qorong‘ilik cho‘kayotgan shaharga qor bostirib kelayotganini xo‘randalar sezmasdi hisob.

Shishadagi yoqut sharobni tinimsiz sipqorayotgan yigit qanchalik ko‘rimsiz bo‘lsa, qarshisidagi juvon shunchalik ko‘hlik ko‘rinardi. O‘sha qora ko‘zlar, o‘sha qalam qoshlar, o‘sha nastarin kabi oq va tiniq yuzlar. Zulukday sochlar ham o‘sha-o‘sha – uchlari ichkariga yengil qayrilib, chiroyli bo‘ynini begona ko‘zlardan yashirib turibdi. Qaddi qomati Ruxsoradan sal to‘laroqday. Balki, yengi kalta targ‘il ko‘ylagi shunday – to‘laroq ko‘rsatayotgandir.

Juvon qarshisida o‘tirgan hamrohiga na bir noz-istig‘no bilan, na bir suqlanib qaray demasdi. Demak, qizning qorni, mahbubining ehtiros qaynab turgan navqiron vujudi och. Mayxo‘rning yuzlari qizarib, ko‘zlari suzilib qolgan.

O‘tgan bir soatdan mo‘lroq vaqt ichida ayol qo‘shni stol tomonga loaqal ko‘z qirini tashlamadi. Komil Qori juvonning bosh burishini juda-juda istardi. Ilhaq o‘tirardi. Qani endi ko‘zlari uning ko‘zlari bilan uchrashsa, nigohlari nigohiga duch kelsa! Kelsa-chi? Kelsa, nima qilar edi? Bilmas, anglamas, lekin uning birgina ko‘z qiriga zor, mahtal-u mahliyo edi. Qariya juvonning e’tiborsizligini o‘zining keksaligiga yo‘ydi: “Yana nima haqing qoldi, og‘ayni, – deb o‘yladi. – Erta-indin yetmishga borib turibsan-ku”.

Mo‘ysafidning oldidagi ovqati allaqachon sovib qolgan. Fikr-yodi uch qadam naridagi ikki xo‘randada, to‘g‘rirog‘i, juvonda. Ayol taomning tagini nonga surib olib kavshar ekan, tinimsiz gapirar, lo‘njidagi ovqatni yutgandagina tili dam olganday bo‘lardi. Yigit uning gaplarini bosh silkib tasdiqlagan bo‘lardi-yu biror so‘zi qulog‘iga kirmayotgani shundoqqina ko‘rinib turardi.

Qiz qo‘zg‘olganlaridan keyin ham Komil Qori tomonga nazar tashlamadi. Ataylab qilayotganday jemperini teskari o‘girilganicha kiyib, eshik tomonga ravona bo‘ldi. Shoshilibroq yurdi. Ikki qadam bosib, taqqa to‘xtadi va orqasiga burildi. Savatchada qolgan ikki-uch bo‘lak nonni qog‘oz sochiqchaga o‘rab, latta sumkasiga solgach, sherigining izidan oshiqdi. Sherigi ofitsiantning yonida bor-budini boy bergan soqqachi qimorbozday shalvirab turardi.

Qariya tashqariga qaradi. Atrof yorishib ketgan: osmon oppoq, daraxtlar oppoq, yer oppoq – qor.

Uning rahmi keldimi yo shunchaki odamgarchiligi tutib ketdimi, tortishib turgan ikki yigitning gapiga qo‘shilganini o‘zi sezmay qoldi:

– Qancha yetmayapti?

– Bir yuz ellik, – dedi ofitsiant. – Ertaga olib kelib berarmish. Kafiliga tashlab ketayotgan telefoniga qarang. Tekinga bersangiz, birov olmaydi.

Komil Qori hamyonidan bir dasta qizg‘ish pul chiqarib, uchtasini mulozimga berdi:

– Uch yuz. Mening hisobim ham ichida. Qaytimi o‘zingga.

Yana o‘nta sug‘urib, oshig‘i notavonga uzatdi:

– Xotiningizning poyabzali ko‘zimga yupunroq ko‘rindi, uka. Etik olib bering!.. Havo sovuq. Biror dard orttirib olmasin, tag‘in.

– Xotinimmas...

– Kimingiz unda?

– Sinfdoshim.

– Yoshlikda bergan ko‘ngil, deng?

– Ayrilmas balo bo‘lur, – deya ishshaydi yigit. – Rahmat, amaki!

– Unda, mana, hammasini oling! – Komil Qori pulning qolganini ham lavang sinfdoshga uzatdi.

– Yo‘g‘-e, amaki? – deya ortiga tislandi u va ikkilanibroq qo‘shib qo‘ydi: – Uyda pulim bor...

– Oling! – Kesib gapirdi qariya. – Uyingizdagi pulni ro‘zg‘oringizga ishlatasiz!..

Mo‘ysafidga ham hayron, ham ishonqiramay qarab turgan yigit uning horg‘in ko‘zlarida yosh g‘iltillayotganini ko‘rdi. Churq etmasdan pulni oldi va lip etib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

– Shu ishni bekor qildingiz, doda, – dedi ofitsiant. – Betayin odamga o‘xshaydi.

Komil Qorining ko‘ksidan xo‘rsiniq aralash bir nido chiqdi:

– Bu gaplaringni qo‘y, o‘g‘lim, – dedi ohista, juda ohista. – Yonidagi – ayol kishi...

MA'NAVIY TARBIYA

KOMILALIK TA'RIFI

Buyuk allomalarimiz komil inson orzusida ko‘plab asarlar bitgan. Xususan, hazrat Alisher Navoiy qalamiga mansub “Hayrat ul-abror” dostonining oltinchi maqolati ham “adab da’bi (xislati)”, “tavoze’ vasfi” va “hayo ziyosi” ta’rif-u tavsifiga bag‘ishlangan. Mazkur bobda shu uch masala tahlili bilan bog‘liq hikmatlardan bahramand bo‘lamiz.

Mana bu satrlar har bir ota-onaga bir o‘git bo‘lib xizmat qiladi:

Birisi qo‘ymoqlik erur yaxshi ot, –
Kim desalar etmagay andin uyot.

Har bir ota-onaning zimmasida farzandiga yaxshi ism qo‘yish mas’uliyati bor, deyilayotir baytda. Toki bu farzand uni chaqirishgan vaqtda ismidan uyalmasin.

Xalqimiz bu o‘gitga amal qiladi. Chaqaloq tug‘ilganidanoq hamma unga yaxshi nom qo‘yish uchun izlanadi. Ba’zi oilalarda bu borada bobo-buvilarga, o‘qimishli insonlarga murojaat ham qilishadi.

Komil, Komila, Kamol, Kamola ismlariga tez-tez duch kelamiz. Arabchadan tilimizga kirib kelgan bu so‘zlar yetuk, to‘liq, kamchiliksiz degan ma’nolarni anglatadi.

Hozirgi kunda maktablarimizda “Tarbiya” fani o‘qitilyapti. Yosh avlodni mukammal shaxs, ya’ni komil inson qilib tarbiyalash bosh maqsadimizga aylangan.

Xo‘sh, farzandlarimizning komil va komila bo‘lib voyaga yetishida kimga tayanamiz? Eng avvalo, onalarimizga!

Bugun jamiyat o‘zgarayotgan, ong yangilanayotgan bir zamonda yashayotgan ekanmiz, oldimizda turgan masalalarni hal qilishda ayollarning o‘rni va ishtiroki muhim.

Navoiy “Hayrat ul-abror”ning biz tilga olgan bobida bola tarbiyasi va uni o‘stirish, o‘qitish, balog‘atga yetkazish borasida alohida to‘xtalib, ota qatori onani ham bekorga ulug‘lamagan:

Boshni fido ayla ato qoshig‘a,
Jismni qil sadqa ano boshig‘a.

Tun-kununga aylagali nur fosh,
Birisin Oy angla, birisin – Quyosh.

Navoiy bu matnda ota-onani Oy bilan Quyoshga tenglashtirishi zamirida ham katta g‘oya bor.

“Ayol” so‘zining ma’nosiga bir e’tibor beraylik. Asli arabcha “ayol” so‘zi – “oila” kalimasi bilan o‘zakdosh. Eski tilimizda “oila a’zolari” tushunchasi “ahli ayol” birikmasi bilan ifodalangani shundan.

Chindan ham, oilaning fayz-u barakasi – ko‘p jihatdan ayolga bog‘liq. Xalqimiz bekorga ayollarimizni “uy bekasi”, “xonadon farishtasi”, deb ulug‘lamaydi. Demak, ayol ma’naviyati – oila ma’naviyati tushunchasining uzviy qismini tashkil etadi.

Farzandni kamolga yetkazish oilaviy tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdan boshlanadi. Oiladagi o‘g‘il-qizlarimizning qanday insonlar bo‘lib yetishishi – hammadan burun ayollarimizga vobasta. Shuning uchun aksariyat buyuk qalam sohiblari ayollar timsolida ham komil inson g‘oyasi targ‘ibini amalga oshirishgan.

Rost, o‘zbek ayoli zimmasiga tom ma’noda milliy, sharqona ma’naviyatni saqlab qolish va uni yanada yuksak darajalarda, zamonaviy asoslarda davom ettirish mas’uliyati yuklangan. Eh-he, chinakam ma’naviyatli ayollarimizga xos qanchadan-qancha fazilat bor.

Navoiy asarlaridagi qator hikoyat va rivoyatlarda ezgu fazilatlar qalamga olingan. Ular faqat erkak timsollari orqaligina emas, ayollar misolida ham keng targ‘ib etilgan.

Ne-ne ulug‘larni, buyuklik darajasiga olib chiqqan ham onalar. Shu o‘rinda Navoiyning yana bir dostoni, ya’ni “Saddi Iskandariy”dan bir muhim hikoyatni eslab o‘tish joiz. Asarda Iskandar mukammal inson sifatida tasvirlanadi. Lekin dostondagi jahongirning onasiga yozgan maktubi berilgan bobda Iskandarday mukammal inson ham o‘limi yaqinlashganida o‘zini onasi oldida aybdordek bilganini bayon etib xat yozadi. “Bir umr sening xizmatingni qilsam bo‘lmas edimi?” deydi.

Garchand Iskandar nihoyatda aqlli, dunyoning katta qismidagi ko‘p mamlakatlarni egallagan jahongir bo‘lishiga qaramay, hayotining oxirida uni shunchalik buyuklikka, ulkan zafarlarga musharraf etgan onasi ekanini anglaydi, ammo farzand sifatida uning xizmatida bo‘la olmaganidan afsuslanadi, o‘g‘illik burchini ado etolmagani uchun o‘zini aybdor his qiladi. Shuning uchun u maktubi orqali volidasidan kechirim so‘raganday, shu tariqa o‘ziga o‘zi tasalli berganday bo‘ladi.

Asarda Iskandar o‘limidan keyin yetti iqlimdan donishmandlar uning onasiga ta’ziya bildirgani kelishgani tasvirlanadi. Shu yo‘l bilan shoir onaga baho beradi. Aflotun Iskandarning volidasi zamonasidagi eng oqila, sheryurak, yuzlab mard sherlarga barobar zot ekanini, Suqrot uning eng yetuk, barkamol ayolligini, Balinos hushyor, donoligini, Buqrot tog‘ kabi vazmin, sabrli, Xurmus bilimdonligini, Farfunyus so‘zlari gavhar, purma’noligini, Arastu g‘amga bardoshli ekanini aytib, ta’riflaydi, shu tariqa unga dalda beradi. Ushbu ta’riflar orqali Navoiy zimdan onalarimizni har tomonlama mukammal bo‘lishga da’vat qiladi.

“Saddi Iskandariy” dostonida keltirilgan boshqa hikoyatda bir shohga bir ustunli uy qurish orzusi tushadi. Xizmatchilari qidira-qidira to‘g‘ri o‘sgan baquvvat daraxtni topishadi. Uning egasi qari kampir bo‘lib, yog‘ochini sotishga rozi bo‘lmaydi. Nihoyat kampirga yog‘och og‘irligida oltin tortib berishadi. Uyni qurib, ichini gavharlar bilan bezatganlaridan keyin ustunni ham zarnigor qilishadi, ya’ni ustiga oltin suvi bilan ishlov berishadi. Kunlardan bir kuni kampir imoratni tomosha qilishga keladi va yog‘ochni o‘pib: “Sen to‘g‘ri bo‘lib o‘sganing tufayli o‘zingni ham, meni ham oltinga ko‘mding!” deydi.

To‘g‘ri o‘sgan chiroyli bir daraxt kishini shunchalik baxtiyor qiladigan bo‘lsa, to‘g‘ri so‘z va halol odamning qilgan ishi, uning fazilatini ta’riflab bitirish mumkinmi? Hikoyatda Navoiy onalar farzandlarini to‘g‘ri tarbiyalab, voyaga yetkazsalar, ular bu ezgu fazilatlari bilan ota-onasiga sharaf, jamiyatiga katta foyda keltirishini tik o‘sgan daraxt misolida targ‘ib etadi.

Hazrat Navoiy oltmish yillik umri davomida, avvalo, millatimiz, qolaversa, umumbashariyat ma’naviyati va ma’rifati ravnaqi uchun bir umr xizmat qiladigan boy adabiy meros qoldirdi. U barcha asarlarida insoni sharifni ulug‘laganiga guvoh bo‘lamiz.

Buyuk shoirning falsafiy aqidasiga ko‘ra, butun borliq, jamiki mavjudot inson tufayli va inson uchun yaratilgan. Shu sabab insonparvarlik uning asarlari bosh g‘oyasi hisoblanadi. Shoir komil insonga xos fazilatlarni targ‘ib etish bilan birga ayollarda uchraydigan illatlarni ham qattiq qoralagan.

Bu, xususan, “Hayrat ul-abror” dostonida kuchli namoyon bo‘lgan. Asarni o‘ziga xos odobnoma, desa bo‘ladi.

Dostonning asosini 20 maqolat tashkil etgan va har bir maqolatda bir muhim hayotiy masala badiiy tahlil etilgan va buning hayotiy tasdig‘i sifatida unga bittadan hikoyat ilova qilingan.

Adab xususidagi 6-maqolatga ilova tarzida No‘shirvon hikoyasi berilgan. Bu shahzodadagi hayo misolida qizlarimizda undan ham yuksakroq fazilatlar bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Yozilishicha, No‘shirvon bir chamanda gulrux yori bilan suhbat quradi va go‘zal tomon qo‘l uzata turib, ko‘zi birdan nargis guliga tushib qoladi. U gul No‘shirvonga odam ko‘zini eslatadi. Shunda No‘shirvon beodoblik qilyapman deb o‘ylab, guldan uyaladi va uzatgan qo‘lini tortadi.

Bu hikoyatda yigit kishida hayo, ibo, uyat tuyg‘usini ta’riflash orqali zimdan ayollarimizda bunday fazilatlar ulardan ko‘ra ham ko‘proq, yuksakroq bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

“Lison ut-tayr” asarida keltirilgan bir hikoyatda erkaklar ayol kishiga muhabbat qo‘yib, shunga berilib ketib, ilmdan, ma’rifatdan uzoqlashib qolmasligi g‘oyasi ilgari suriladi. Ayolning chiroyiga mahliyo bo‘lib, yigit o‘z maqsadlaridan voz kechmasligi lozimligi uqtiriladi.

Arastuning shogirdlari orasida ilmiy anjumanlarda kimsan Aflotun bilan ham bahs qila oladigan zo‘r bir yigit bor edi. Ustoz uni farzanddek ko‘rardi. Lekin yigit bir mohiliqoga oshiqi beqaror bo‘ldi. To‘ydan keyin kitob o‘qishni ham unutib, yorining oldidan jilmay qoldi. Ustozning pand-nasihatlari kor qilmadi. Qarasaki, shuncha mehnati zoye ketyapti. Oshiqlik bir umidli olimni ilmdan ayirmoqda. Arastu bir maxfiy chora qilib, kelinga dori ichiradi. Yigit, qancha yugurib-yelsa ham, kelin dardiga chora topolmay, ustozi oldiga boradi. Ustoz shogirdini Iskandar xizmatiga yuborib, o‘zi kelinni davolaydi. Ungacha kelin ozib, bujmaygan bir holatga kelib qolgandi. Yigit kelib qarasaki, uning oldingi go‘zalligidan asar ham qolmagan. Ustozi shogirdiga kelinni ko‘rsatib, go‘zallik o‘tkinchiligiga ishora qilgandi.



Navoiy “Tarixi muluki Ajam” asarida otasiga vafo qilmagan qizning ayanchli taqdirini tasvirlaydi. Toyir podshohning Malika ismli go‘zal qizi bor edi. Shopur degan yosh podshoh Toyir yurtiga yurish qilib, saroyini qamal qiladi. Malika Shopur ta’rifini eshitib, unga g‘oyibona mahliyo bo‘ladi. Otasining saroyi darvozalarini ochib berishga imkoniyat yaratadi. Shopur mamlakatni egallab, Toyirni o‘ldiradi. Malikaga uylanadi. Bir kuni Malika uxlolmay qiynalayotganini ko‘rganlar podshohga buni bildirishadi. Shopur surishtirsa, bir murud, ya’ni nashvoti bargi to‘shak ostida qolgani uchun u shuncha bezovta bo‘lgan ekan. Shopur xotinidan: “Seni ne nav’ tarbiyat qilibdurlarkim, muncha nozuk bo‘lubsen?” deb so‘raydi. Malika otasi uni ilik ustiga novvotni un qilib sepib boqqanini aytadi. Shunda Shopur: “Andoq parvarish bergan otag‘a ne vafo qildingkim, manga qilg‘aysen?!” deb, uni o‘limga mahkum etadi.

Navoiy bu hikoyat orqali otasi, Vatani, xalqiga vafo qilmagan ayol eriga ham vafo qilmasligi masalasini o‘rtaga qo‘yadi.

“Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida yozilishicha, Bahouddin Naqshband yoshlik paytlari tushida yassaviya pirlaridan Hakim Ota, ya’ni Sulaymon Boqirg‘oniyni ko‘radi. U Bahouddinni bir darvesh ixtiyoriga topshiradi. Bu tushini bolakay ona bibisiga aytib berganida, u: “Ey farzand, senga yassaviya shayxlaridan bir nasiba bo‘ladi”, – deb bashorat qiladi. Yillar o‘tib, Bahouddin o‘sha darveshni o‘ngida ko‘rib, unga bir necha yil muridlik qiladi. Bu Xalil Ota edi. Demak, Bahouddinning ona tarafdan bibisida ham ajib xislat mavjud bo‘lgan.

Ana shu “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi oxirida Navoiy “erkaklar martabasiga yetgan orif ayollar zikri”ni beradi. Biz shu tariqa islom olamida o‘tgan 35 nafar avliyo ayol haqida ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Xullas, Navoiyning qaysi bir asarini o‘qimaylik, u xuddi bugun yozilgandek, bizga ma’naviyat ulashadi. Demak, ular hech qachon o‘z qadrini yo‘qotmaydi. Bu ijod namunalari hozir ham yoshlarni tarbiyalash, ularning ma’rifatini oshirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Navoiy asarlari o‘zining boy mazmuni, chuqur g‘oyalari bilan kishilar qalbini hamisha rom etaveradi. Shu tariqa ular har zamonning eng zamonaviy so‘zi bo‘lib qolaveradi.

Ziyoda G‘AFFOROVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti

Boshlanishi 1-sahifada.

KIBRIMIZ OSMON QADAR...





Izohlar orasida kimdir “Shuni ko‘z-ko‘z qilish shartmi?” degan mazmunda munosabat qoldirsa, asosiy “qahramonlar”dan chalg‘ib, ko‘pchilik shu bandaga malomatlar yog‘dirishga tushib ketishadi: “Birovning jo‘mardligini ko‘rolmas ekansiz!”, “Baxtiyor otaxonga hasadingiz keldimi?” “Qo‘lingizdan kelsa siz ham sovg‘a qiling”.

Tadbirkorlik qilibdi, halol pul topibdi – otasiga ulov olib beradimi, katta shahardagi “siti”lardan kvartira sovg‘a qiladimi – bu uning shaxsiy ishi. Bunga e’tiroz yo‘q. Ammo shu ishini minglagan odamlarga ko‘z-ko‘zlashi shartmi? Axir buning ortida dinimizda ham, milliy qadriyatlarimizda ham qoralanadigan **KIBR** atalmish (uning yana bir atamasi manmanlik) balo yotibdi-ku!

Xuddi shunga o‘xshash yana bir holat haqida ham ijtimoiy tarmoqlarda o‘qib qolamiz: “Falonchi uch nafar farzandi uchun alimentni oldindan to‘ladi, ya’ni ajrashgan xotini va farzandlariga falon so‘mga kvartira sovg‘a qildi”. Xursand bolalar va yangi uy surati ham ilova qilinadi.

Bu o‘rinda, huquqiy tilda aytsak, ajrashgan ota qonunda belgilangan tartibda onasi qaramog‘ida qolgan bolalariga sud qarorida ko‘rsatilgan alimentni bir yo‘la, ya’ni barchasi balog‘at yoshiga yetguniga qadar ado qilishi lozim bo‘lgan miqdorni to‘lab berdi, xolos. U otalik burchini va qonun talablarini bajardi. Bu ikki yoki uch shaxs orasidagi “oldi-berdi” holati. Buni ijtimoiy tarmoqlarga yoyinlash, “saxovatpesha ota”ni ulug‘lash qaysi mezonlarga to‘g‘ri keladi? Buyam bemehr otaning kibri emasmi aslida? Xuddi shunday! (Yaxshiyam “Falonchi amaldor davlatga yetkazgan falon million so‘m zararni birato‘la naqd pulda qopladi”, degan mazmundagi sud ijrochisiga aybdor (asli jinoyatchi) topshirayotgan qop-qop pullar suratini hali ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rmadik. Ko‘rib qolsak, ajablanmaymiz ham).

Quyida aytmoqchi bo‘lganimiz kibr balosining yana bir namoyishi borki, bunga mos atama topolmadik. Siz urinib ko‘ring-chi!

Kattagina korxona rahbari pora bilan qo‘lga tushib, uzoq muddatga qamalib ketdi. Jazoni o‘tab qaytgani sharafiga o‘g‘illari elga dasturxon yozishdi. Yaqinlari, tanish-bilishlari qutlab borishdi va... hayratdan (asli xijolatdan) lol qolishdi. Ehson berilayotgan to‘yxona oldida qora tusli yap-yangi, ustlariga gullar va sharlar bog‘lab tashlangan, “Xush kelibsiz, otajon!” degan alvon yozuv osig‘liq yengil mashina turgan ekan. Mezbon – qamoqdan chiqqan poraxo‘rning o‘g‘li mehmonlarga “Otamiz qamalganida kun kelib ozodlikka chiqqanlarida shunday kutib olamiz, ko‘ngillari o‘ksimasin, deb niyat qilgandik. Mana, shu kunlarga yetkazdi. Otamiz rosa xursandlar!” deb maqtanardi...

Nimalar bo‘lyapti? Nahotki fe’limiz shu darajaga bordi? Qilg‘iliqdan uyaladigan emas, faxr tuyadigan bandalarga aylandik.

...Yon qo‘shnimizning o‘g‘li balog‘atga yetmagan o‘quvchi qizning nomusiga tegib, o‘n olti yilga qamaldi. Otasi kasalmand holiga besh-olti yil xorij mamlakatlariga borib ishladi. Maqsadi: o‘g‘li qamoqdan chiqqan kuni unga yengil mashina sovg‘a qilish va to‘yini o‘tkazish. Ikki odam to‘plangan davrada orzusini aytishdan uyalmas, tinglovchilar na e’tiroz bildirish, na ma’qullashini bilmas, yerga qarab (aslida bir-biriga yashirincha imo-ishora bilan miyig‘ida kulib) o‘tirishardi.

Bu nima? Kibrning qay bosqichi bu? O‘tmishimizda bunga o‘xshash voqealar biror tarixiy bitikda yozib qoldirilganmi?

Bilmadik.

Yana bir shunga o‘xshash “saxovat”ni (buni “jo‘mardlik” deb baholaydiganlar ko‘pchilik) qay bir farzandning otasi yoki onasiga umra ziyoratiga borishi uchun yo‘llanma sovg‘a qilganida ham ko‘ramiz. Yana o‘sha lavhalar: yo‘llanma taqdim qilayotgan farzand, bir parcha qog‘ozni ko‘z yoshlari bilan qabul qilayotgan ota yoki ona.

Shu o‘rinda “O‘ng qo‘ling qilgan xayrni (saxovatni) chap qo‘ling bilmasin!” deyilmish qadim otaso‘zimiz borligini qayta va qayta eslatishimiz munosabat bildiruvchi qatlam olqishlari ostida ko‘milib qolib ketadi.

...Esimda, yigirma yillar oldin bir tanishim maslahat so‘rab kelgan: “Otamiz umr bo‘yi haj ziyorati orzusi bilan yashadilar – o‘sha vaqtlari qo‘limiz kaltaligidan orzulari amalga oshmadi. Endi tadbirkorlik qilib, anchagina sarmoya egasi bo‘ldim. Otam uchun haj ziyoratini “omonat usul”da ado etmoqchi bo‘lganimda birovlar qarshi chiqdi. Nima qilishni bilmay boshim qotgan...”

Otasining armoni ichida qolib, azob bergan farzandni tushundim va maslahat berdim: “Shu hajga atagan pulingizni biror muhtoj oilaga bering! Umri bo‘yi duo qiladi”.

U rozilik bergach, shunchaki eslatdim: “Buni men bildim, siz biling – boshqalar bilmasin! Siz yordam qilgan oila farzandlari o‘ksishi mumkin. Bering, keting, biror joyda aytmang!”

Shunday qildi. O‘sha muhtoj oila tanishim bergan pulni tijorat bankiga omonatga qo‘yib, uch yildan so‘ng foizlari o‘sib, evaziga ikki xonali uy oldi.

Kuni-kecha “temir daftar”da turgan oila yangi uyga ko‘chib o‘tganini eshitganlar hayratlandi. “Hokimlik yordam qilgandir”, dedi birovlar. “Homiylar ko‘mak ko‘rsatishgan”, deb tusmollaganlar bo‘ldi. Hech kim o‘sha saxovat egasini eslamadi, chunki u buni oshkor qilmagandi.

U kibr nimaligini bilmasdi, odamgarchilik tamoyillari bilan tarbiyalangandi.

Ota-onasiga haj ziyorati yo‘llanmasi sovg‘a qilayotganlarning yana bir qatlami tag‘in-da “ilgarilab” ketishgan. Ular haj ziyoratidan qaytgan otasi va onasiga yengil mashina sovg‘a qilganliklari haqidagi lavhalarni g‘urur bilan ijtimoiy tarmoqlarga yoyinlashyapti. Haj ziyoratidan qaytgani sharafiga beradigan dabdabali to‘ylarda kalitlarini qarsaklar ostida topshirishyapti ham.

...Shunday xabarlarga ko‘zim tushganida ulug‘ shoirimiz Erkin Vohidovning “Kamtarlik haqida” she’ri beixtiyor esimga keladi.

Yana tatar jadidligi yetakchilaridan biri Rizouddin ibn Faxruddinning quyidagi fikri yodimga tushadi: “...Kelajak hayotingizda mumkin ulug‘ olim bo‘larsiz yoki taniqli bir muharrir, balki mashhur xatib, savdogar va yo boshqa kim bo‘lsangiz bo‘ling, ammo husni xulqdan bir qarich ham chetga chiqmang. Hech qachon kibrga yaqinlashmang!”

Jadid bobomiz kibrni husni xulqning birlamchi dushmani deb bilgani bejiz emas. Hozir esa... “dushman” allaqachon ostonani hatlab, to‘rga chiqib, yastanib olishga ulgurdi.

...Kuni kecha kenja o‘g‘lim iymanib aytib qoldi: “Sizga yangi yotoq mebeli buyurmoqchi edim”. Sezdimki, biror yigirma yilki beminnat xizmat qilayotgan yotoq divan eskirganidan o‘g‘lim uyalgan.

“Mayli, ammo o‘sha matohni keltirganingda suratga olib ijtimoiy tarmoqqa qo‘yib yurma!” dedim hazil va jiddiy ohangda.


Ro‘zimboy HASAN,
O‘zbekiston Yozuvchilar ushmasi a’zosi

2024-yil 1-noyabr
№ 45(45)

YANGI LOYIHA

Bugun Vatan tarixiga haqqoniy nazar solish, yillar davomida xaspo‘shlangan voqeliklar-u ayanchli taqdirlar haqida ro‘y-rost gapirish, tahlil va tadqiq etish imkoni berildi. Zero, Yangi O‘zbekiston va uning bunyodkori ziyoli olimlarimiz va madaniyat arboblari, ijodkorlar oldiga aniq-tiniq vazifa qo‘ydilar: uch ming yildan ortiq boy tariximizni bor bo‘y-basti bilan bugungi va kelgusi avlod ko‘z oldida gavdalantirib, faxr va iftixor tuyg‘ularini tarbiyat etmoq kun tartibiga chiqdi.

ULUG‘ MURABBIY



Jo‘rabek RO‘ZMETOV,
Kinematografiya agentligi boshqarma boshlig‘i

Bu ishonch va daldadan ruhlangan ijodkorlar moziyning ochilmagan qirralari, unutilgan shaxslarini tarix sahniga olib chiqishda yangicha sa’y-harakat boshladi. Tarixni ilmiy asosda o‘rganish, tadqiq qilish bevosita tarixchi olimlarimizning, ixtisoslashtirilgan ilmiy muassasalarning vazifasi ekanligi ravshan. Ammo, targ‘ibot borasida adabiyot va san’at, xususan kinematografiyaning ta’sirchanlik ko‘lami ancha keng. Haqqoniy tarixni gavdalantirishda kino xalqchil vosita sifatida muhim o‘rin egallaydi.

Modomiki, o‘tmish xususida gap borar ekan, bir asrlik tarixga ega o‘zbek badiiy kinosi va unda yoritilgan tarixiy voqelik borasida qisqa bo‘lsa-da to‘xtalishni lozim topdik.

O‘tgan asrning qizil mafkurasi zaminimizdan yetishib chiqqan ulug‘ zotlarni biror yorug‘ kun ko‘rmay adolat-u haqiqatdan mutloq mosuvo chorasiz g‘ariblardek talqin etgan. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek haqidagi o‘sha davr mahsuli bo‘lgan filmlar fikrimizga yorqin misol. Hamza haqidagi ko‘p qismli filmni-ku, gapirmasa ham bo‘ladi.

O‘tgan asrning 60-yillaridan boshlab Sovet hukumatini o‘rnatish uchun yeng shimarib maydonga tushgan yasama qahramonlar haqidagi cho‘pchaklar o‘sha davr tomoshabinini hayratga solgani inkor etib bo‘lmas haqiqatdir. Shu tariqa katta avlod kinochilari tili bilan aytganda, “O‘zbekfilm” “Basmachfilm”ga aylandi. Shu sohaning yoshi bir joyga borib qolgan vakili tamshanib, Yusuf Yalangto‘shni (“Osiyo ustida bo‘ron” filmi qahramoni) sog‘inganini, shunday filmlar yaratilmayotganidan nola qilganiga guvoh bo‘ldim. O‘zbek kinosining yarim asrdan ko‘proq tarjimayi holida bunday hodisalar, afsuski, ko‘p uchraydi. To‘g‘ri, davr shunday bo‘lsa, tuzum shunday bo‘lsa, talab shunday bo‘lsa, firqaning yo‘rig‘iga yurmagan ijodkor jisman va ma’nan yo‘q qilingan, qatag‘ondan o‘lmay-netmay bir amallab o‘tganlar mudom qo‘rquvda yashagan bo‘lsa, sho‘ring qurg‘ur kinochi nima qilsin?! Shunday kinoasarlar bilan bir qancha avlod ulg‘aydi. Bugun asl mohiyatni anglagan ziyolilar qatorida oqni qoradan ajrata olmayotgan “Inqilob chavandozlari”, “Qora konsulning halokati”, “Qo‘qon voqeasi”, “Yettinchi o‘q”ni sog‘inayotganlar talaygina. Shunga shuncha g‘avg‘omi, degan nuqtayi nazar bilan qarovchilar ham topiladi.

Kino sohasida ishlayotgan millatparvar ijodkorlar, ko‘plab ziyolilar noilojlikdan pinhona o‘kinib yurganida muhtaram Prezidentimiz muhim tarixiy tashabbusni ilgari surdilar. 2024-yilning 16-may kuni Kinochilar saroyiga tashrif buyurib, O‘zbekiston kino san’ati muzeyi bilan tanishdilar. Kinoijodkorlar bilan suhbatlashgan Prezidentimiz “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish dasturi yuzasidan mulohaza yuritdilar. “Agar tariximizni dunyoga tarannum etmoqchi bo‘lsak, buni birinchi navbatda kino yordamida amalga oshirishimiz kerak. “Tirik tarix” dasturi shonli o‘tmishimizni chuqur anglab shu asosda kelajakka ishonch bilan dadil qadam qo‘yishga, yoshlarni chinakam vatanparvar insonlar qilib tarbiyalab, Uchinchi Renessansni barpo etishga katta turtki bo‘ladi”, deya ta’kidlaganlari kinoijodkorlarni, shu jumladan barcha ziyolilarni to‘lqinlantirdi.



Oradan qisqa vaqt o‘tib, 5-iyun sanasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kinematografiya sohasini yanada rivojlantirish hamda mamlakatimiz tarixiga bag‘ishlangan filmlar turkumini yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish dasturi tasdiqlandi va 54 ta tarixiy film ishlab chiqarilishi belgilandi.

Qarorda kinematografiya sohasini yangi bosqichga ko‘tarish, milliy davlatchiligimizning uch ming yildan ziyod tarixini, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosini aks ettiruvchi filmlar turkumini ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Kinematografiya agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi, O‘zbekiston kinoarboblari ijodiy uyushmasi hamda ilmiy-ijodiy jamoatchilikning takliflari asosida 2024–2027-yillarga mo‘ljallangan “Tirik tarix” filmlar turkumini yaratish dasturini tasdiqlash vazifasi yuklatilgan edi. Ushbu dastur orqali xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyati, azaliy qadriyat va an’analari, ezgu orzu-intilishlarini chuqur ilmiy asoslarga tayanib, to‘laqonli aks ettirish, Vatan ozodligi va ravnaqi yo‘lida kurash olib borgan buyuk sarkarda va davlat arboblarining murakkab hayoti va davlatchilik faoliyatini xolis va haqqoniy ko‘rsatib berish, tariximizda yorqin iz qoldirgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, alloma va mutafakkirlar, shoir va adiblar, ma’rifatparvar jadid bobolarimiz, atoqli san’atkorlarning ilmiy-ijodiy merosi, ularning umumbashariy tamaddun rivojiga qo‘shgan munosib hissasini yuksak g‘oyaviy-badiiy saviyada namoyish etish kabi olijanob vazifalarni amalga oshirish maqsad qilingan.


Shuningdek, qarorga muvofiq belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida Kinematografiyani rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy komissiya hamda Filmlarning g‘oyaviy-badiiy saviyasini oshirishga ko‘maklashuvchi milliy kengash tuzildi. Milliy komissiya va milliy kengash qo‘shma majlisi bayonida 2024–2027-yillarga mo‘ljallangan “Tirik tarix” dasturidagi filmlarni ishlab chiqarish rejasi, dasturga kiritilgan filmlarni ishlab chiqarish bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomi, Milliy komissiya va Milliy kengashning yangilangan tarkibi tasdiqlandi. Shuningdek, Yozuvchilar uyushmasi, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti va Fanlar akademiyasi Tarix instituti bilan birgalikda “Tirik tarix” dasturiga kiritilgan filmlarni yuqori saviyada ishlab chiqarish maqsadida ijodiy guruhlar (rejissyor, ssenarist va boshqa ijodkorlar) uchun o‘quv kurslarini tashkil qilish vazifalari yuklatilgan edi.

Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida yetuk adabiyotshunos va tarixchi olimlar ishtirokida joriy yilning 5-sentyabridan 12-sentyabriga qadar kinoijodkorlar uchun mo‘ljallangan “Maxsus adabiyot”, 18-sentyabrdan 26-sentyabrga qadar esa “Maxsus tarix” o‘quv kurslari tashkil qilindi.

Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, dasturdan o‘rin olgan 18 ta film xalqaro hamkorlikda suratga olinishi rejalashtirilgan. Jumladan, yaponiyalik kinoijodkorlar bilan “Sakura ifori”, Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda esa “Taqdir ufqlari” filmi suratga olinishi kutilmoqda.

“Tirik tarix” dasturiga kiritilgan filmlarni ishlab chiqarish bo‘yicha tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq 2024-yil 10-oktyabrdan 10-noyabrga qadar 44 ta kinoloyiha uchun tanlov e’lon qilindi. Tanlov yakuniga yetgandan so‘ng, g‘olib kinoloyihalar aniqlanib, nizomga muvofiq kinostudiyalar o‘rtasida “pitching” (sarmoyadorlarni topish uchun kinoloyihalar taqdimoti) o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Tarix ulug‘ murabbiy, deymiz. O‘tmish sabog‘i xatolardan xulosa chiqarib, kelajakka sobit qadam tashlashga, ajdodlarga munosib bo‘lishga o‘rgatadi.



MUNOSABAT

TARIXIY XOTIRA BARHAYOT

Prezidentimizning “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi jadid bobolarimiz va qatag‘on qurbonlarini xotirlash, ularning ilmiy-ma’rifiy merosini o‘rganish ishini yangi bosqichga olib chiqdi.



Mazkur qarorda siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning hayoti va faoliyatini o‘rganish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish, siyosiy qatag‘on qurbonlarini viloyat, tuman va shaharlar kesimida nomma-nom aniqlash, ularning hayoti va faoliyati, tarixiy xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni, arxiv va muzeylarda saqlanayotgan hujjatlarni to‘plash, tegishli mahallalar va umumta’lim maktablarida xotira burchaklarini tashkil etish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Bunda Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda uning hududiy bo‘limlari ilmiy xodimlari uchun vazirlik va idoralarning idoraviy arxivlaridan foydalanish, muzey va uning hududiy bo‘limlari fondlarini muntazam boyitib borish, yangi ekspozitsiya va ko‘rgazmalar tashkil etish, bu borada zamonaviy axborot texnologiyalari, multimedia vositalaridan keng foydalanishni yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, mavzuga oid kitoblar, yo‘l ko‘rsatkichlar chop etish va tayyorlash bilan bog‘liq sarf-xarajatlarni moliyalashtirish maqsadida mahallalar, tumanlar, hududlar va respublika darajasida maxsus fondlar tashkil etish ham ko‘zda tutilgan.

Hozirgi murakkab va tahlikali davr mustaqilligimizni har tomonlama mustahkamlash, ko‘p millatli xalqimizni Vatanimiz bayrog‘i ostida yanada jipsroq birlashtirishni taqozo etmoqda. Buning uchun asl tariximizni tiklash va ilmiy nuqtayi nazardan chuqur o‘rganish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlodning Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usini, fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish lozim.

Qarorda har yili oktyabr oyining birinchi haftasini mamlakatimizda Siyosiy qatag‘on qurbonlarini yod etish haftaligi sifatida nishonlash belgilangan. Shundan kelib chiqib, joriy yilda “Tarixiy xotira, ma’naviy va ruhiy tarbiya – Yangi O‘zbekiston poydevori” shiori ostida barcha tuman va shaharlarda, mahallalarda, tashkilot va muassasalarda ma’naviy-ma’rifiy, targ‘ibot-tushuntirish tadbirlari hamda davra suhbatlari, uch avlod uchrashuvlari, xotira va qadrlash kechalari o‘tkazildi.

Ma’lumki, nafaqat jadid bobolarimiz, balki taniqli istiqlol kurashchilari ham mustamlaka azobini totgan barcha millatlarning manfaatini o‘ylagan holda kurashga kirgan. Kommunistik mafkura tarafdorlari esa o‘z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish niyatida millatlarning haq-huquqlarini ayovsiz toptab, milliy qadriyatlarni oyoqosti qilgan holda jamiyatda o‘z g‘oyalarini qurol va kuch yordamida amalga oshirishga harakat qilishgan.

Shu ma’noda mamlakatimizda bugun qatag‘on siyosatiga nisbatan e’tiborning davlat darajasiga ko‘tarilishidan ko‘zlangan bosh maqsad – ko‘p millatli xalqimizning haq-huquqini birday himoya qilish, o‘zligini namoyon etishdan iboratdir. Bugun muzeyimiz ilmiy jamoasi tomonidan Sadriddinxon Sharifxo‘jayev, Ahmadbek Mavlonbekov, Sherimbet qozi Davlatmurod o‘g‘li, Yunusjon hoji Og‘aliqov kabi shu vaqtgacha faoliyati, millatimiz tarixidagi xizmatlari kam o‘rganilgan milliy qahramonlarimiz bilan bir qatorda, 1891-yil Ko‘hna Urganch shahrida tug‘ilgan, “Xorazm hikoyalari”, “Matyoqubov”, “Junaidxon” kabi asarlari bilan shuhrat qozongan yirik adib Boris Cheprunov, ukrain millatiga mansub tarixchi, professor Vasiliy Yakovlevich Yaroskiy, belorus professori Yaroshevich Nikonor Kazimirovichning ham mamlakatimiz taraqqiyotidagi tarixiy xizmatlari xolis o‘rganilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar orqali ko‘p millatli xalqimiz manfaatlarini himoya qilgan qatag‘on qurbonlari nomini abadiylashtirish, ilmiy merosini o‘rganish muhim ahamiyatga molikdir.

Bahrom IRZAYEV,
Qatag‘on qurbonlari xotirasi muzeyi bosh ilmiy xodimi

YODNOMA

Ma’sud RASULIY:

“Otam pokiza inson edi”

Biz Samarqandda istiqomat qilar edik. 1937-yilning 2-oktyabr kuni xuddi kechagidek yodimda. Kutilmaganda darvozamiz qattiq taqilladi. Men otamga ergashib eshikni ochishga bordim. Hovliga qurollangan kishilar kirishdi. Biri harbiy kiyimda, yana ikki nafar askar. O‘shanda o‘n ikki yoshda edim. Otamning rangi bo‘zarib ketganini ko‘rib hayron bo‘ldim. Ular bizga uyni tintuv qilish haqidagi orderni ko‘rsatishdi. Tintuv roppa-rosa sakkiz soat davom etdi. Uydagi kutubxona javonimizdagi har bir kitob varaqlab chiqildi. Ular orasida arabiy imlodagi sharq qo‘lyozmalari, “Academiya” nashriyotining qimmatbaho jildlari, o‘sha paytdagi, “ZIF” (“Земля и фабрика”) nashriyotining arzon kitoblari ham bor edi.

Harbiy kiyimdagi odam besh-oltita kitob va bir dasta suratlarni ajratib oldi. Onamni ham olib ketmoqchi bo‘lishdi. Ammo onam farzand kutayotgani – homilador bo‘lgani uchun uyda qoldilar. Faqat hech qayerga ketmasligi haqida undan tilxat olishdi.

Tintuv paytida otam kitob o‘qib o‘tirganlari hali-hanuz ko‘z oldimda turibdi. O‘ylab qarasam, otam shu zaylda o‘zining mustahkam irodasini namoyon qilgan ekan. O‘qiyotgan kitobini yopib, oshxonaga o‘tib xotirjam ovqatlangan ham edi. Olib ketar mahali boshimga qo‘lini qo‘yib: “Tushkunlikka tushma, o‘g‘lim”, dedi qat’iyat bilan. Onamga qarab: “Bu anglashilmovchilik. Tekshiradi va men, albatta, qaytaman”, dedi. Bu otam og‘zidan men eshitgan oxirgi so‘zlar edi. Bu voqeadan keyin oradan yillar o‘tdi. Men umid va ilinj bilan eshik poyladim. Otam qaytib kelishi va eshigimiz taqillashini umid bilan kutdim. Ammo qismat imzosi o‘zgacha ekan...

Otam Ma’ruf Rasuliy 1900-yilda tug‘ilgan bo‘lib, dastlab shahar masjidi qoshidagi boshlang‘ich maktabda, keyin rus-tuzem maktabida o‘qigan edi. 1918-yilda Samarqandda birinchi sovetlar maktabi ochilishiga bosh-qosh bo‘lgan edi. Unga ajoyib pedagog-novator Abduqodir Shakuriy mudir qilib tayinlanadi. Otam esa Shakuriyga yordamchi bo‘ladi. Otam ilk marta onamni shu ma’rifat dargohida uchratgan ekan.

Sovet maktabida qizlar paranjiga o‘ranib o‘qishardi. Dadamning kichik singlisi Muhtaram ammam ham shu yerda o‘qirdi. Shuningdek, onajonim Muharram Abdulla qizi va uning singlisi Muzaffara ham shu dargohda ta’lim olishadi. Muhtaram akasi bergan kitoblarni o‘qish uchun Muharramga eltib beradi. “O‘qib bo‘lingan” kitoblar iziga qaytadi. Orada borib kelayotgan kitoblar orasida ikki qalbning muhabbat maktublari yashiringan bo‘ladi...

Otam juda yumshoq fe’lli, barchaga hurmat va izzat bilan qarar edi. U bilan bir marta suhbatlashgan odam yana gaplashgisi kelardi. 1917-yilda Buxoro amirining buyrug‘i bilan Sadriddin Ayniyga 75 darra uriladi. Adib jarohatlardan dastlab Kogonda davolanadi. Keyin uni Samarqandning So‘fi Roziq mavzesida yashaydigan onamning otalari – Abdulla Abduxoliqov o‘z uyiga olib keladi. Bobomning kenja o‘g‘li G‘ani Abdullo shunday eslaydi: “Ayniy bilan uchrashuv bolalikdagi eng yorqin xotiralarim sirasiga kiradi. 1917-yilda Samarqanddagi So‘fi Roziq mavzesidagi ko‘chadan fayton o‘tib borardi. Unda otam bilan Ayniy o‘tirgandi. Shu kundan boshlab adib bizning uyda yashay boshladi. Bir kuni mehmon yashaydigan xona derazasi ochiq ekan. Ayniy yarim yalang‘och holda orqasini derazaga qilib o‘tirgan ekan. Ko‘zim tushib qoldi, qonga bo‘yalgan darra izlari endi-endi bita boshlagan edi...

1918-1919-yillarda Samarqandda ko‘plab yoshlar to‘garaklari tashkil qilinadi. Otam Ma’ruf Rasuliy Eski shaharda ilg‘or yoshlar to‘garagini ochadi. Samarqand shahar veteranlar kengashi raisi Rahim Shokirbekov o‘z maqolasida otam haqida shunday yozgan edi: “Maktabga bu inson nomi berilishi juda quvonarli. U xalq ta’limi sohasiga ko‘p kuch sarfladi. 1925-yilning sentyabr oyida matbuot xodimlarining katta yig‘ilishi bo‘ldi. Yig‘ilishda juda ko‘p odam gapirdi. Ammo jurnalist Ma’ruf Rasuliyning nutqi nafaqat menda, barchada katta taassurot qoldirdi”.

20-yillarda otam Samarqand xalq ta’limi bo‘limini boshqardi. “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida qator maqolalari e’lon qilinadi. 1925-yildan “Zarafshon” gazetasiga muharrir bo‘ladi. Shuningdek, unga ilova tarzida “Mashrab” jurnalini ham chiqarishadi.

Otam o‘sha paytlarda yosh jurnalistlarni tarbiyalash ishiga alohida e’tibor qaratadi. 1926–1928-yildarda otam O‘zbekiston Narkomprosining siyosiy-ma’rifiy bo‘limi boshlig‘i vazifasiga kirishadi. O‘sha paytlarda adabiyot va san’at sohasiga ham ushbu bo‘lim mas’ul edi. Shu bois otam yozuvchi, aktyor va san’atning boshqa soha xodimlariga ham rahbarlik qilardi. Qo‘lidan kelganicha ularga yordam berar, har jihatdan qo‘llab kuvvatlardi. Sadriddin Ayniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Botu, Ziyo Said, Komil Aliyev, Hamid Olimjon kabi elimizning taniqli ijodkorlari, shuningdek, Tojikistondan Mirzo Tursunzoda, Abdusalom Dehoti, Rahim Hoshim kabi adiblar uyimizga tez-tez kelishardi. Ular gohida tongga qadar suhbatlashib, bahslashib, ijodiy masalalarni hal qilishardi.

Yigirmanchi asrning boshlarida jadidlar musulmon maktablarini isloh etib, yangi usul maktablarini tashkil qilishdi. Sinflarda dars jarayonida geografik xarita va globuslardan foydalanish boshlandi. Ayniqsa, o‘quvchilar yerda emas, balki maxsus partalarda o‘tirishlari chindan ham yangilik edi.

1972-yili uyimizga 30-yillarda qatag‘onga uchragan adabiyotshunos Vadud Mahmud keldi. Suhbati davomida o‘sha o‘ttizinchi yillarda Cho‘lponning uyiga borganini aytdi. Shiftga qarab, osig‘lik turgan xaltachaga ko‘zi tushibdi. Nima deb, so‘raganida Cho‘lpon e’lon qilinmagan she’rlarini yoqib, kulini xaltada saqlayotganini aytgan ekan.

O‘ttizinchi yillarda dastlab Samarqandda, so‘ngra Toshkentda “Alanga”, “Sharq”, “Yosh qalam”, “Mushtum”, “Mashrab”, “Yer yuzi”, “Maorif va o‘qituvchi”, “Qizil tikon”, “Uchqun” kabi jurnallar tashkil etildi.

Otam o‘zbek yoshlarining xorijga borib o‘qishiga ham ko‘maklashadi. U o‘ta kamtar va yumshoq fe’l-atvorligicha qoldi. Shuning uchun bo‘lsa kerak-ki, uni doimo zamondoshlari juda iliq so‘zlar bilan eslashar edi. Otamni bilgan zamondoshlarining “Ma’ruf Rasuliyni o‘sha davr haqiqiy ziyolilarining erta ochilgan guli deyish mumkin. U ajoyib notiq, adolatli va pokiza shaxs edi” deya xotirlashlarini eshitib, to‘g‘risi, faxrlanib yuraman. Otam qayerda va qanday lavozimda bo‘lmasin, halol va vijdon bilan chin ko‘ngildan ishladi.

Maqolani O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Muqaddas ABDUSAMATOVA nashrga tayyorladi.



Mas’ud Ma’rufovich Rasuliy (1925-1996) – taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, milliy adabiyotlarning o’zaro ta’siriga oid ko’plab tadqiqotlar muallifi. O’zbekiston fanlar Akademiyasi til va adabiyot institutida rus adabiyoti bo’limiga o’ttiz yildan ziyod rahbarlik qilgan. O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi.

“Iqror” – uning memuar janrida yozgan yagona asari. Unda muallif totalitar tuzumda qatag’on qilingan otasi va yaqin qarindoshlarining taqdirlari haqida hikoya qilgan.

MILLAT FIDOYILARI

AKBAR O‘ROZALIYEV – JADID, DIPLOMAT

1985-yil 4-fevralda andijonlik jadid taraqqiyparvarlar Akbarali O‘rozaliyev, Abdurahim Yusufzoda, Inomjon Xidiraliyevning hayoti, faoliyati haqida manbalar, ma’lumotlar olish haqidagi iltimosimga binoan Andijon oblast partiya komitetining sekretari Mirza Muhitdinov sobiq Ittifoq Tashqi ishlar ministrligiga xat bilan murojaat qilgan edi. Buning sababi, yuqorida nomlari zikr etilgan andijonliklar sovet hokimiyatining dastlabki yillarida diplomatiya sohasiga jalb qilingan favqulodda qobiliyatli shaxslar bo‘lishgan. Xususan, Akbarali O‘rozaliyev Xitoyda, Abdurahim Yusufzoda Afg‘oniston va Moskvada, Inomjon Xidiraliyev Moskvada, Londonda faoliyat ko‘rsatgan.


Tashqi ishlar ministrligidan 1985-yil 11-aprelda oblast partiya komitetining sekretari nomiga javob xati kelganida qanchalik hayajonlanganim hali-hanuz esimda. O‘sha xatni qo‘lga olgach, unda ism-sharifi ko‘rsatilgan arxiv rahbariga murojaat etib, avvalgi ma’lumotlarga qo‘shimcha yangi materiallar bo‘lsa, ulardan nusxa olib jo‘natishni iltimos qilganman. Shunga muvofiq Tashqi ishlar ministrligi diplomatiya bo‘limi mutasaddisi V.V.Sokolov tomonidan 1986-yil 6-aprelda mening nomimga A.O‘rozaliyev haqida ma’lumot yuborildi. Unda aytilishicha, Akbarali O‘rozaliyev 1925-yil 6-iyulda Moskvada Xitoyga diplomatik xizmatga – Qoshg‘arda Bosh konsullikka ishlash uchun ketayotib to‘ldirgan shaxsiy varaqasida **“O‘tmishda qanday partiyalarga mansub edingiz?”** degan savolga hech ikkilanmasdan: *“1914-yildan 1917-yilgacha yosh sart (o‘zbek) larning “Ittihod va taraqqiy” yashirin tashkiloti a’zosi bo‘lganman”,* deb javob yozgan. **“Sizning inqilobiy va ijtimoiy ishdagi ishtirokingiz nimada ifodalangan?”** degan savolga u: *“1917-yilga qadar ma’rifatparvarlik, to‘garak ishlarida, 1917-yildan so‘ng esa sovet, xo‘jalik, partiya organlarida ishladim”,* deb javob bergan.

2001-yili “Sharq” nashriyotida chop etilgan “Istiqlol yo‘lida shahid ketganlar” nomli kitobda Abdurahim Yusufzoda, Akbar O‘rozaliyev va boshqa shaxslarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, fojiali taqdiri ilmiy jihatdan yoritilgan. Biz ana shu ma’lumotlar asosida Akbar O‘rozaliyevning faoliyati, xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasida rol o‘ynagani, vaqtlar o‘tib buning uchun ta’qib ostiga olingani va boshqa voqealarga e’tiboringizni qaratishni lozim topdik.

Akbar O‘rozaliyev 1916-yili Turkistondagi milliy ozodlik qo‘zg‘olonida qatnashgan, Andijonda rus mustamlakachi ma’muriyatining mahalliy xalqqa nisbatan qo‘llagan mustabid siyosatini fosh etishda faollik ko‘rsatgan mahalliy yetakchilardan biri edi. Podshoh hukumatining jazolash organi Andijondagi milliy yashirin tashkilotning izidan tushib, uni batamom yo‘q qilmoqchi bo‘lgan. Turkiston rayon muhofaza bo‘limi (TRMB) boshlig‘i o‘rinbosari Rozalion-Soshalskiy harbiy gubernator mahkamasi hujjatlarini sinchiklab o‘rganib, Andijondagi “taraqqiyparvarlar” ishi yuzasidan jinoiy ish qo‘zg‘agan.

Akbar Boytursunovich Andijondagi “Taraqqiyparvarlar”, “Padarkush”chilar, “Gap”chilar nomi ostida faoliyat ko‘rsatayotgan ijtimoiy-siyosiy jamiyatning eng faol a’zolaridan edi.

Shuning uchun ham TRMB rahbariyati va agentlari unga qarshi astoydil kurash olib boradi. Akbarali O‘rozaliyev va ukasi Muhammadjon Andijondagi kelishtiruvchi sud tilmochligi va mirzaligi vazifalaridan bo‘shatiladi. TRMB boshlig‘ining o‘rinbosari Rozalion-Soshalskiy 1917-yil 7-fevralda Andijonga yetib keladi. Shunda Akbarali O‘rozaliyev taktik yo‘l tutadi, ya’ni otasi Boytursunning A.N.Kuropatkin bilan o‘zaro yaqin tanishligidan (u 1877-yili Kuropatkin bilan birga Sharqiy Turkistonga bor-



Akbar O‘rozaliyev (1890-1937) – SSSRning Qoshg‘ardagi elchisi.

gan edi) foydalanib o‘zi va boshqa taraqqiyparvarlar hayotini saqlab qolish, Andijonda hech qanday yashirin siyosiy tashkilot yo‘qligini isbotlash uchun Turkiston general-gubernatoriga ariza bilan murojaat qiladi:

“Turkiston o‘lkasi general-gubernatori Aleksey Nikolayevich Kuropatkinga. Georgiy Xochining barcha darajalari sohibi Boytursun O‘rozaliyevning o‘g‘li Akbar Boytursunovich O‘rozaliyevdan

ILTIMOSNOMA

Skobelov okrugi sudi raisining 1917-yil 6-yanvardagi farmoyishi bo‘yicha men va ukam Muhammadjon Andijon uezdi kelishtiruvchi sudi huzuridagi tilmochlik xizmatidan bo‘shatildik. Bizning xizmatdan bo‘shatilishimiz sabablari xususida menga sud raisining tushuntirishicha, u bu o‘rinda sizning farmoyishingizga ko‘ra ish ko‘rib, meni va ukamni xizmatdan bo‘shatishga majbur bo‘lgan. Shu yilning 6-fevralida men shaxsan siz saodatli oliy hazratlariga bu ishni tekshirish haqida iltimosnoma topshirgan edim. Shunda siz tomondan bunday sud idoralarida xizmatda turgan shaxslarni xizmatdan bo‘shatish to‘g‘risida farmoyishlar berilmasligi aytilgan edi.

Ayrim shaxslar tomonidan aytilgan, aslida bo‘lmagan “yosh o‘zbeklarning padarkushlar partiya”siga mansubligimiz tufayli siz saodatli oliy hazratlari bizlarni xizmatdan bo‘shatish haqida farmoyish bergan ekansiz.

1914-yilning 6-iyunida Andijon shahrida mahalliy havaskor sart yoshlari tomonidan ko‘ngilni xush etuvchi kecha tashkil qilindi. Unda Mahmudxo‘ja Behbudiyning sart tilida yozilgan “Padarkush” nomli pyesasi ham sahnada qo‘yilgandi. Pyesa o‘z mazmuniga ko‘ra chuqur ibratli edi. Hozirgi zamon sartlari jamiyatining ma’naviy tushkunligini ochib beradi. Shu kechada to‘plangan mablag‘ning bir qismi hozirgi borayotgan urushda halok bo‘lganlarning boquvsiz qolgan oilalariga, bir qismi Andijondagi erkaklar progimnaziyasi foydasiga, qolgan qismi esa ko‘ngilni xush etuvchi boshqa muassasalar foydasiga sarflangan edi. Bunday kechani tashkil etish uchun mahalliy rus hukumatidagilarning ruxsati olingandi. Bu pyesada rol o‘ynaganlar orasida men ham bor edim.

Hammaning esidan allaqachon chiqib ketgan bu voqeadan quruq safsataboz kishilar partiya, “Yosh o‘zbeklar harakati”ni o‘ylab topdilar. Bu kechani tashkil etishda qatnashganlarni esa qandaydir partiyaviy tashkilotga daxldor deb gumonsiradilar. Bularning hammasi bizlarning kam madaniyligimizni xarakterlab bermoqda. Arzimas havaskorlik pesasi ko‘nikmagan aqlimizni shu qadar taajjubga solmoqdaki, ayrimlarga butun davlat hayotini to‘ntarib yuborishga qodir ulkan hodisa yuz bergandek tuyulmoqda.

Mazkur masala bo‘yicha Andijonga Toshkent soqchilari bo‘limi boshlig‘i yordamchisi kelib, dastlabki tergov olib bordi, ham rus, ham mahalliy ma’muriyatni so‘roq qildi. Oqibatda o‘zbek yoshlarining qandaydir firqa tuzib, qandaydir asossiz maqsad sari kurashayotgani haqidagi gumonlar to‘laligicha isbotlanmadi.

Men va ukam Muhammadjon butun xizmatimiz davomida nojo‘ya tanbeh olgan emasmiz. Bizning ma’naviy sifatimiz, xulq-u atvorimiz va faoliyatimizga kelsak, butun mahalliy ma’muriyat baho berishi mumkin. Andijon uezdi boshlig‘i K.K.Medinskiy, O‘sh uezdi boshlig‘i yordamchisi K.P.Gorodinskiy, Skobelev okrug sudi prokurori yordamchisi P.P.Robin, Andijon uezd 1-daha kelishtiruvchi sudyasi Petrov va meni xizmat bo‘yicha bilgan hamda halol hayotimdan voqif bo‘lgan boshqalarni ham guvoh qilib keltirishim mumkin.

Tilmoch sifatida men va ukam xizmat qilib katta oilamizni tebratib turmoqda edik, endilikda esa xizmatdan bo‘shatilib, yashash vositalaridan mahrum bo‘lib qoldik. Hozirgi vaqtda bunday ahvolda bo‘lishlik biz uchun favqulodda toqat qilib bo‘lmaydigan holatdir.

Bundan tashqari, o‘zim yetarli ma’lumotga ega bo‘lmaganimdan, ammo ma’lumotli bo‘lishning foydasini tushunganligimdan eng oxirgi mablag‘larimni, imkoniyatimni ishga solib, ukamni Andijondagi erkaklar progimnaziyasida o‘qitmoqdaman. Bu to‘g‘risida siz Andijon shahriga kelganingizda ham xabar topgansiz.

Ushbularni bayon etib, Sizdan bizni xizmatga tiklab qo‘yish to‘g‘risida farmon berishingizni so‘rayman. Bordi-yu buning imkoni bo‘lmasa, mazkur ish bo‘yicha rasmiy va og‘zaki tekshiruv o‘tkazishni itoatkorlik bilan iltimos qilishni sharafim, deb bilaman. Bu ishni rasmiy tekshirib chiqishda bizga qo‘yilayotgan ayblar qanday bo‘lmasin isbotlanmaydi, biz yaxshi nomimiz va obro‘yimizning tiklanishiga erishajakmiz.

Skobelov shahri,
1917-yil 24-fevral.
A.B.O‘rozaliyev”.

Ariza 4 mart kuni yetib borgan. Unga 1917-yil 6-mart kuni viza qo‘yilgan: **“Prokuror xulosasida so‘rovning harakatlari haqida ma’lumot yo‘q. Rasmiyat uchun tekshiruv bo‘lishi kerak. Bu haqda general-gubernatorga va arizachiga ma’lum qilinsin”.**

Fevral inqilobi tufayli Andijondagi “Yosh o‘zbeklar yashirin tashkiloti” haqidagi tergov ishlariga barham berildi. “Padarkush” pyesasida rol o‘ynagan Akbar O‘rozaliyev boshi ustidagi qora bulut tarqaldi. Uning hayotida yangi sahifa ochildi.

1917-yil 14-iyunda Andijon shahridagi Olimjon hoji zavodida harakatdagi armiya frontorti ishlaridan qaytib kelgan 900 ga yaqin ishchi-musulmonlarning mitingi bo‘lib o‘tadi. Unda musulmonlardan sovet hay’ati tuzilib, musulmonlardan 13 kishi, yevropalik ruslardan 2 kishi kiritiladi. 27 yoshli Akbar O‘rozaliyev Andijon musulmon soveti raisi o‘rinbosari etib saylanadi. 1917-yil avgustda shahar dumasiga demokratik ruhda saylov o‘tkaziladi. “Sho‘royi islom”ning mahalliy aholi o‘rtasida ta’siri kuchliligi natijasida milliy harakat namoyandalari Andijon shahar dumasidagi 97 o‘rindan 84 tasini egallaydi. Dumaga Akbar O‘rozaliyev ham saylangan. O‘rozaliyev eserlar partiyasi safiga kirgan, chunki eserlar musulmon aholi manfaati yo‘lida bolsheviklarga qarshi kurashayotgan edi. Andijon musulmonlar soveti eserlar tashkiloti bilan yaqin aloqada faoliyat ko‘rsatgan. Mariya Nikolayevna Orda eserlar partiyasi Andijon bo‘limining raisi edi.

Akbar O‘rozaliyev davr taqozosi, zamona zayliga ko‘nikib, mustabid tuzumga xizmat qilishga majbur bo‘lgan. U Andijon uezd-shahar soveti ijroqo‘mi raisi o‘rinbosari, inqilobiy komitet raisi o‘rinbosari, harbiy tayyorlov bo‘limi boshlig‘i, “bosmachilar”ga qarshi kurash “beshligi”ning raisi, Andijon va O‘sh uezd-shahar inqilobiy komitetlari raisi o‘rinbosari, Farg‘ona oblast revkomi raisi va o‘rinbosari, oblast reja komissiyasining raisi lavozimlarida ishlagan. Qahramonimiz 1925–1927-yillarda Xitoyning Qoshg‘ardagi sovet bosh konsulligida xizmat qiladi. Shuningdek, Farg‘ona oblast banki boshqaruvchisi bo‘ladi. 30-yillar boshida Andijondagi Manjara nomli artelga, so‘ng “Savay” sovxoziga rahbarlik qilgan. Ammo 1934-yil 1-dekabrda trotskiychi-zinovevchilar tomonidan S.M.Kirovning o‘ldirilishi tufayli dushmanlarni izlab topish, ularni qamoqqa olish, tergov qilish, “aksilinqilobchi”, “millatchi” degan tamg‘alar qo‘yib qatag‘on qilish kampaniyasi Akbar O‘rozaliyevni ham o‘z domiga tortdi. U 1935-yil 14-sentyabrda qamoqqa olinib, 14, 16-sentyabr, 27-oktyabr, 26-noyabrda tergov qilingan. Bu tergov materiallari alohida tahrir qilishga muhtojdir. O‘zSSR Oliy sudi maxsus kollegiyasi 1936-yil 10-11-sentyabr kunlari Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan ayblangan Akbar O‘rozaliyevning ishini ko‘rib chiqadi va uni 3 yil muddatga ozodlikdan mahrum etish va 3 yil saylov huquqidan mahrum qilish haqida hukm chiqaradi.

Ayblanuvchi Akbar O‘rozaliyevning 1937-yil 18-noyabrdagi tergov bayonnomasida NKVD tergovchisining **“Qachon va nima uchun siz qamoqqa hukm etildingiz?”** degan savoliga Akbar O‘rozaliyev: *“1935-yili NKVD organlari tomonidan Andijon shahrida qamoqqa olindim va 1936-yili men aksilinqilobiy targ‘ibotim uchun 3 yil qamoq jazosiga hukm etildim...”* degan javobi yozilgan.

Tergov organlarining operativ ma’lumotlari bo‘yicha Akbar O‘rozaliyev Malik sovxozi 4-bo‘limida mahbuslar orasida tizimli tarzda aksilinqilobiy targ‘ibot olib borgan. RKP(b)ga qarshi aksilinqilobiy bo‘htonlar bildirgan, xalq dushmanlarini maqtagan. Yaponiya va uning harbiy qudrati, bosqinchilik siyosatini maqtagan. Ayni vaqtda qizil armiyaga qarshi bo‘htonlar yog‘dirgan. Mahbuslarni ishga chiqmaslikka chaqirgan. O‘rozaliyevning qo‘poruvchi aksilinqilobiy faoliyati tufayli 4-sonli brigada ishlab chiqarish rejasini doimiy ravishda bajarmagan. U O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-, 21-moddalari bo‘yicha ayblanib Malik sovxozida sud qilingan.

1937-yil 21-noyabrda O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi yig‘ilishda 1890-yili Andijon shahrida tug‘ilgan Akbar O‘rozaliyev “Milliy ittihod” aksilinqilobiy tashkilotning sobiq faol a’zosi sifatida ayblangan. 1935-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun 3 yil qamoq jazosiga tortilgani ta’kidlanib, u jazo muddatini o‘tayotganda mahbuslar orasida aksilinqilobiy targ‘ibot olib borganlikda, lagerda mahbuslarni ish tashlashga chaqirganlikda ayblangan. Uning aksilinqilobiy faoliyati natijasida mehnatdan bo‘yin tovlovchilar foizi ko‘payib borgan. NKVD “uchligi” Akbarali O‘rozaliyevni otuvga hukm qilish haqida qaror chiqaradi. Unga tegishli mulk musodara etilib, hukm darhol ijro qilingan. O‘shanda u endigina 47 yoshga kirgan edi.

KPSS XX syezdidan keyin “katta terror” davrida siyosiy qatag‘on qilinganlar qatorida Akbar O‘rozaliyev ham oqlangan. Qahramonimiz nomini abadiylashtirish maqsadida Andijon shahri ko‘chalaridan biri Akbar O‘rozaliyev nomi bilan ataldi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

XOTIRA AZIZ



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Mulla Mamajon Tojiboyev – 1880-yili Marg‘ilon shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Hibsga olingunga qadar imomlik bilan mashg‘ul bo‘lgan. “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi sifatida aksilinqilobiy targ‘ibot bilan doimiy ravishda shug‘ullangan. Farg‘ona vodiysi bo‘yicha aksilinqilobchi, isyonchilar bilan yaqindan aloqada bo‘lganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan. Unga tegishli mol-mulk musodara qilingan.

Arif Sayfutdinovich Chapkunov – 1876-yili Ryazan guberniyasida tug‘ilgan. Millati tatar. Hibsga olingunga qadar Marg‘ilon rayonlararo ipak quritadigan idorada mudir bo‘lib ishlagan. “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hukumatga qarshi targ‘ibot olib borgani va SSSRdan O‘rta Osiyoni ajratib olishga uringanlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Mulla Ermat Nurmatov – 1888-yili boy oilada tug‘ilgan. 1930-yili quloqqa tortilgan. 1931-yili topshiriqni bajarmaganligi uchun 3 yil ozodlikdan mahrum etilgan. O‘tmishda “Sho‘royi Islom” milliy aksilinqilobiy tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan paytda imomlik lavozimida edi. Kengashlarda sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy chiqishlar qilganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 31-avgustdan hisoblangan.

Mulla Zokir Yusupov – 1878-yili Andijonda tug‘ilgan. 1931-yil quloq qilingan. O‘tmishda “Sho‘royi Islom” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingan vaqtda “Stalin” nomli kolxoz a’zosi bo‘lgan. Aksilinqilobiy, isyonchi guruh a’zosi, yig‘inlarda O‘zbekistondagi burjua milliy davlat “Musulmonobod” davlatni tashkil etish uchun aksilinqilobiy, mag‘lubiyatchilik xarakterida targ‘ibot olib borganlikda ayblangan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 58-moddasi va 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

Boqi Mahmudov – 1903-yili Andijon shahrida boy oilada tug‘ilgan. 1917-yilgacha yollanma mehnatdan foydalangan. “Milliy ittihod” tashkilotining a’zosi. Bosmachilar bilan aloqada bo‘lgan. O‘qituvchi bo‘la turib o‘quvchi yoshlarni millatchilik ruhida tarbiyalashga uringani uchun O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi bilan 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan.

Domulla Hakim Oxun Ibrohimov – 1871-yili Qo‘qon shahrida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Hibsga olingan paytda masjid imomi bo‘lgan. Toshkentda “Sho‘royi Islom” aksilinqilobiy tashkilot bilan aloqada bo‘lib turgan. Aksilinqilobiy guruhlar kengashlarida qatnashganlikda ayblangan. O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddalari qo‘llanilib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 15-yanvardan hisoblangan.

O‘rinboy Qori Madg‘oziyev – 1892-yili tug‘ilgan. O‘zbek millatiga mansub. “Sho‘royi Islom” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Doimiy ravishda milliy kadrlarni tayyorlash bo‘yicha ish olib borganlikda, qo‘zg‘olonchi guruh a’zosi ekanlikda ayblanib, O‘zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 1-bandi va 67-moddasi bo‘yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1936-yil 30-dekabrdan hisoblangan.

Abdulla Qori Toshboyev – 1889-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Sobiq savdogarning o‘g‘li. 1928-yili 1 yil 8 oy ozodlikdan mahrum etilgan. Hibsga olingan paytda “Volga” arteli choyxonasi mudiri bo‘lgan. “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lganlikda, aksilinqilobiy yig‘inlarda ishtirok etganlikda, aholi orasida doimiy ravishda millatchilik targ‘iboti olib borganlikda, chorvachilik sohasiga zarar yetkazganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 10-avgustdan hisoblangan.

Oxundada Solixo‘jayev – 1893-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Sobiq savdogarning o‘g‘li. 1921-yili aholidan noqonuniy o‘ch olgani uchun javobgarlikka tortilgan. 1922-yili Harbiy Tribunal tomonidan otuvga qilingan hukm 10 yil ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirilgan. 1937-yili siyosiy bezoriligi uchun javobgarlikka tortilgan. Hibsga olingan vaqtda Toshkent viloyati Yangi Qo‘rg‘on tumanida meva yetishtiruvchi bo‘lim mudiri bo‘lgan. “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi bo‘lgani va bosmachilik otryadiga shaxsan o‘zi komandirlik qilganlikda ayblangan.

Nigoraxon AKBAROVA,
ilmiy xodim


(Davomi kelgusi sonda).

HAJV

SEMIZLIKNI KIM KO‘TARAR?

Senga aytsam, hamma balo yeb-icharda ekan, ukam! Faqat qorinmas, miya ham ovqatsirab tatalaydi. Ertalabdan miyani me’dasiga “fas-fut” tiqishtiraman. Keyin kun bo‘yi lanjlanib, falon artist esonomon qutilib oldimikin, falon joyda “daga-dagachi” bachajish chiqqandi, qo‘lga tushdimi-yo‘qmi, deb shungayam siqilaman. U yog‘ini so‘rasang, kechasi soat uchgacha go‘lf koptogi qanday yasalishi, Afrikadagi yoruba qabilasidagi oqbilaklar balchiqdan chotbosdi qilib laqqa baliq tutgani, Gou Chaynalik ochofat ochib chiqishiga bir kun qolgan jo‘jani chaynamay yutgani va shunga o‘xshash bemaza narsalarni ko‘rib, ko‘zim qizargan. Mana hoziram kalla jonivor Do‘rmondagi so‘rida qopketgan bo‘sh shishaga o‘xshab g‘uvillab yotibdi...

Buni qara, bugun 1-noyabr – AQShda Milliy sog‘lom ovqatlanish kuni emish. Tavbangdan ketay, bu zamonda sog‘lom ovqatlanib bo‘larkanmi? Mana, meni olaylik, har kuni sog‘lom ovqatlanishni “repetitsiya” qilaman. Lekin biror marta “sahna”ga chiqqanimni eslolmayman. Nuqul taroziga chiqaman. Nimaga deysanmi? Ey, uka, aytguligi yo‘q. Bir paytlar “avtoritet” deb, kattalarga havas bilan kichikroq “qorincha” qo‘ygandik... Keyin nima bo‘ldi? Bardamalab ketdi, savil! Hammasiga “karantin” aybdor. Qiladigan ishi qolmasa, so‘qim ham kavsh qaytaradi. Odamni miyasi och qolsa, qorni qappayadi. Chunki oshqozon ishlaganda kalla ishlamay qoladi. Tanadagi qon oqimi “nozik” (!) mehmonni tezroq kuzatib qo‘yish bilan ovora bo‘lib, miyani yakkamoxov qipqo‘ya-



di. Keyin nima bo‘ladi? Fikrlash tizimi esnaydi. Biroz cho‘zilib olsak, zarar qilmas, uzr-da, deydi-yu, shartta oyoq uzatvoradi... Bu yog‘i ke-etdi... Uchqo‘rg‘onga!

Xullas, ozishga qaror qildim. Avvalo, o‘tgan-ketgandan surishtirdim, sergo‘sht somsalarni laqqa-laqqa yutib “Yutub” ko‘rdim. Hammasini topib olgan gapi bir: kundalik ratsiondan yog‘li ovqatlarni olib tashlang! Shuyam gap bo‘ldi-yu?! Bular medinstitutni bir-biridan ko‘chirib bitirganmi? Kilkillab turgan ilik sho‘rvadan kechib bo‘larkanmi? Choyxona palovni dumbasiz tayyorlab ko‘r-chi? Ey, qo‘yni dumbasini aytyapman! Mehmon-pehmonga borganda, kechirasiz, dasturxondan yog‘li ovqatlarni olib tashlang deyolasanmi? Bir aytib ko‘r qani? Soliqchiga qaragandek o‘qrayadi!

Qiziq xalqmiz. Bolamizdan berkitgan shirinliklarni yeyishga mehmonni majburlaymiz. Hech bo‘lmasa, tatib ko‘rishga. Yo‘q desa, urdi xudo! Bola sho‘rlik eshikka suyangancha ko‘zini g‘iltillatib turibdi. Ammo dasturxon hurmati, bir-ikki cho‘qigan bo‘lasan. Oldingga qo‘ydimi, eysan! Holbuki, bu yoqda Navoiy hazrat: “Oldiga qo‘yganni yemoq – hayvonning ishi...” deb turibdilar. Qisqasi, odam safidan ko‘p marta chiqqanmiz, uka... Oqibatini ko‘rib turibsan.

Avvalo, nonushtaga e’tibor qiling, deydi feysbukda tarvaqaylagan do‘xtirlardan biri. Maktab davri zo‘r edi. Tongda choy ichib ket, deydigan onang yoningda. Ertalab qo‘shnidan sut chiqadi. Qaynaganiga asal bilan quruq choy qo‘shib, qotgan non to‘g‘rab bitta “urvorasan”, shu bilan “zavtirik” – zab tirik bo‘ladi. Yo bo‘masam, so‘pini suvi ilimasdan hovliga yo‘rg‘alaysan. Baxmaltob barglar oralab “aji” qipturgan nonbehidan bitta uzasan. Hali chimildiq ko‘rmagan g‘o‘r qarg‘ani chumdugidan tushib qolgan boyyong‘oqlardan bir-ikkitasi kalishingga botadi. Terib olasan. Bo‘ldi, tayyor sog‘lom nonushta! Arzonligini aytmaysanmi?! “Gazak”ka mayizmi, turshakmi qo‘shsang, kechgacha kayfing taroq, dimog‘ing chog‘-da, ukam! O‘ylab qarasam, hozir intilganimiz – sog‘lom ovqatlanish o‘sha paytlar hayot tarzimiz bo‘lgan ekan.

Bunday olganda, ota-bobolarimiz to‘g‘ri qilgan ekan. Axir o‘zlari aytgan naql bor: “Nonushtani o‘zing ye, tushlikni do‘sting bilan, kechkini dushmaningga ber...” Afsuski, men sho‘rlikda dushmanam yo‘q!

Ana, parhezkashlar aytyapti: har qancha og‘ir ovqat bo‘lsa, ertalab yeng, oshqozon ko‘taradi. Nahorgi oshni shunisi yaxshi. Uniyam o‘ziga yarasha odobi bor. Avval niyat qilib to‘yga borasan. Birorta bozori chaqqon nospurushdan “besh mingtalik”ni talqonnosdek maydalatib, to‘yana o‘rnida to‘ychivoyni kaftiga shartta bosasan. Yayrab ketadi! U yog‘i tanishlarni ko‘rasan. Dasturxon atrofida o‘tirasan. Bitta fotiha tortiladi. Choy uzatiladi. U bilan oshqozonni uyg‘otib olasan. To‘yxonani to‘rida dutorini qorniga qo‘yvolib, bir tovoqbashara zorlanadi: “Qaddi-bastinga sallamno...” Likopdagi chimchi salatdan chimchib, me’dangni hozir keladigan yog‘li palovga tayyorlaysan. Ana keldi. Undayam shoshish yo‘q. Qani, sizdan bo‘lsin! Yo‘q, avval o‘zlaridan bo‘lsin. Boshlab bering. Mana... Xullas, chaynab-chaynab, choydan ho‘plab-ho‘plab, issiqqina oshni “o‘zlashtirasan”. Ana keyin yana bitta fotiha. Surasan. Kechgacha vadavang! Bundan keyin tushlikda kamroq yeysan, kechga yana kamroq. Qarabsanki, sog‘lom turmush tarzi!

Rivojlangan davlatlarda nonushtaga alohida marosim sifatida qarash bor. Albatta, sut mahsulotlari, qaynatilgan yo qovurilgan tuxum, sabzavotlar, imkoni bori baliq, imkoni yo‘qrog‘i asal, turshak, mayiz, tag‘in zaytun deganlari... Ishqilib, tanaga bezarar engilgina nonushta bo‘ladi.

Ozishni mashq qilib yurgan paytlarim hayotga ko‘proq e’tibor qila boshladim. Juda ovqatxo‘r el ekanmiz. Ammo shaharning manaman degan yemakxonalari ham soat o‘n birda ko‘zini ishqalab ish boshlaydi. (Kechasi soat uchgacha jinlar bazmi bo‘lgan-da!) Shunday qilib, tongda ishtaha saqlab, o‘rnimdan turdim. O‘zim eringanim uchun yengilroq to‘ydiradigan tamaddixona izladim. Ey, ishonasanmi, kunduzi chiroq yoqib qidirish kerak ekan. Bir-biridan uzoq-uzoq joylashgan. Bittasini amallab topib bordim. Nonushtaga neki lozim, hammasi muhayyo! Ammo qimmat! Nega? Chunki talab kam! Faqat jonini qadrini biladiganlar yoki ertalab tuxum qovurishgayam erinadiganlar talabgor. Keyin bozor aylandim. Sog‘liqqa foydali nima bo‘lsa, narxi osmon. Oldingda ikkita yo‘l bor: yo har kuni umringni kam-kamdan qisqartirib bor yoki bir qaro kunda qazo top. Tarjimasi: pulni tejab, nosog‘lom ovqatlarni yeb, oshqozon-ichak kasalliklari, qandli diabet, infarkt, insult orttirib, falon so‘mga davolan yoki shu davolanish puliga kasal bo‘lishdan avval tozaroq ovqatlan. Tanla! Do‘konlarimiz sun’iy mahsulotlarga to‘la. Ichimliklarimiz zararli. O‘zimiz loqayd. Har narsani vaqti va me’yorini bilmaymiz. Masalan, olcha pishganda sharbat qilib ichmaymiz, bankaga tiqamiz... Pomidor-bodringni foydali paytida yemaymiz. Tuzlab (!), sirkalab (!), tanaga zararli bo‘lgan toksinlarga boyitgach, tanovul qilamiz. Uniyam nima bilan? Uzumligida kun ko‘rmagan “uzum sharbati” bilan! Seniyam miyang achib ketdimi? Meniki beshbattar! Endi to‘g‘ri ovqatlana boshlaganimda bir tadbir chiqadi. Hali u bayram, hali bu to‘y-tantana, yangi yilni aytmaysanmi, ey, oyda, yilda bir ko‘rishgan tanishing ham, “qittay-qittay qilaylik”, deb holi joningga qo‘ymaydi. Bu yog‘ini so‘rasang, o‘zingniyam tomog‘ing taqillab turgan bo‘ladi. Ochig‘ini aytsam, hamma kasal – kallada! Odam avval ruhini, miyasini to‘ydirishi kerak. Eplolmagach, sog‘lom turmush tarziga shunday dedim: “Sen bilan munosabatlarimiz uzoqqa cho‘zilmaskan, xarakterimiz to‘g‘ri kelmadi. Shuning uchun kel, do‘st bo‘lib qolamiz...”

Mana endi bu ahvol. 7/24 rejimida ortiqcha 20 kiloni o‘zim bilan olib yuraman. Yelkamda pichoqqa borib qolgan to‘qli bilan tasavvur qipko‘r! O‘shani ko‘tarib yuribman, uka!

Mana nega ertalab turishga, zinadan ko‘tarilishga, (mansabda ko‘tarilishgayam!) hatto tuzukroq fikrlashga qiynalaman. Poyma-poy gaplarimga siqilmaysan-da, uka. Miyam o‘lguday och... Irodasizlik yomon ekan, ukam... Omon bo‘l, o‘zingga qara!

AKANG LAPASHANG


TILBILIM

O‘RGIMCHAK, O‘RMAK VA QIRQ O‘RIM SOCH

“O‘rgimchak. O‘ziga ovqat bo‘ladigan hasharotlarni tutish uchun to‘r to‘qiydigan bo‘g‘imoyoqli yirtqich hasharot”.

“O‘rmak. Sholcha yoki gilam to‘qiydigan mahalliy dastgoh”.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu ikki so‘zga shunday izoh berilgan. Demak, o‘rmak so‘zining ham, o‘rgimchak so‘zining ham tub ilidizi to‘qish ma’nosidagi o‘r so‘ziga borib taqaladi. “Qizimning sochini o‘rib qo‘ydim” degan gapda o‘rish so‘zi to‘qish so‘ziga yaqin. Chunki onalar qizlarining sochini o‘rganda soch tolalarini gilam iplarini birlashtirib to‘qiganday to‘qiydilar. “Qirq o‘rim soch” iborasi ham shunga ishora qiladi.





Alisher Navoiy o‘rmak so‘zini ikki ma’noda “tuya junidan to‘qilgan bir nav’ mato va soch o‘rish ma’nosida ishlatgan. O‘rgimchak so‘zini o‘rgamchi shaklida qo‘llagan:

O‘rgamchi shuboqqa parda solib,
Ul parda ichida soya olib.
(Layli va Majnun)

Xalq tilida hozir ham bu so‘z ko‘proq o‘rgamchi deb ishlatiladi.


Mahmud Koshg‘ariy o‘rdi so‘zini “qizlarning sochini o‘rish” ma’nosida va o‘rgimchak so‘zini o‘rumchak örumchäk shaklida qo‘llagan. “At-tuhfa” lug‘atida o‘rgimchak örÿmchÿk – orumcho‘k, soch o‘rami ormach (orÿk) shaklida kelgan.

“Turkiy tillar etimologik lug‘ati”da mo‘g‘ul tilida jun ko‘ylak – örmege (o‘rmege), tuya junidan qilingan yumshoq mato örmög (o‘rmo‘g) deyilishi haqida ma’lumot bor. Shuningdek, gilam to‘qiydigan ibtidoiy qurilma – o‘rmak asli o‘r so‘ziga -moq qo‘shimchasi qo‘shilishidan paydo bo‘lgan degan izoh ham bor.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Bugun bir qiz, “Aka, ijara to‘lovi uchun pulim etmay qoldi. Yordam qilib tura olmaysizmi?” deb yozib qoldi. U qiz Yaponiyaga kelganida yigirma yosh edi. Hozir o‘ttizga yaqinlashib qoldi. O‘qidi, ishlayapti. Ijara to‘loviga puli yo‘q. Nimaga? Nafsi o‘pqon, “xarobadan chiqqan millioner” onasi sababli. O‘sha ayolning yeyishga noni ham yo‘q edi. Bu qiz bechora ham o‘qib, ham ishlab, qishloqdagi uylarini ta’mirdan chiqardi. Oilasidagilarga mashina olib berdi. Bu orada o‘zidan oldin singillari erga tegib ketdi. O‘zi haliyam turmushga chiqmagan. Singillariga eng zo‘r sarpolarni majburlab qildirishdi. Eng yomoni, hozirgi oddiy mashina uydagilariga yoqmay qolibdi. “Malibu” olarmishlar! Mana shu yergacha chidadi bechora qiz. Meni ko‘rishi bilan o‘kirib yig‘lab yubordi. “Men-chi, men qachon turmush quraman? Nimaga ularning yallo qilib yurishi badaliga men xor bo‘lishim kerak”, dedi! Rosa yuragim ezildi.



BAS QILING, EY, “MEHRI DARYO” ONALAR!

Shaxsan o‘zim bunga o‘xshagan taqdir egalarining yuzdan oshig‘i bilan gaplashib ko‘rganman. “Akangga mashina olishimiz kerak, ukangga dang‘illama to‘y qilishimiz kerak, opangning eriga falon qilishimiz kerak” kabi bema’ni “orzu”lar qurboni bo‘layotgan yoshlarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.

Ey, baraka topgurlar, sizni deb Yaponiyada yurgan qizingiz to‘yib ovqatlanmayapti. To‘yib uxlamayapti, shunchaki sizlarning nafsingiz yo‘lida qurbon bo‘lyapti. U-bu chiroyli joyda rasm tushgan bo‘lsa, ishga ketayotib, yo‘lda tushib olgandir, bechora. Ortida turgan osmono‘par bino uning shaxsiy mulkimas. Yo‘ltanlamas, qop-qora “Toyota” bilan rasmga tasodifan tushib qolgandir? U sho‘rlik kechasi-yu kunduzi – kuniga 25 soat ishlayapti. Tasavvur qilyapsizmi? Siz aymoqlaringiz bilan gap-gashtakda, to‘y-hashamda yurganingizda bu bechora uyqusizlikdan burni qonab, boshi aylanib, tirik murda bo‘lib yuribdi. Bunaqa yurtdoshlarim juda ko‘p. Bechoralarda shunchalik bosim kattaki, uydagilarini o‘ylab, oila ham qurolmaydi. Gaplashsangiz, “Menga uy-puy kerakmas, hech narsa kerakmas, qaytmayman” deb siz tufayli yurtga araz urib, eldan bezib ketganlari ham bisyor.

O‘v-v! Qizim – nomusim deydigan, jigarqonimdan bo‘lgan deb shig‘ir to‘qib, nag‘ma aytadigan xo‘jako‘rsinchilar! Kuniga yuz dollar topar ekan deb, nafsingiz battar o‘pqon bo‘lmasin. Kuniga shuncha topsa, odamga o‘xshab yashashi uchun 80 dollarini xarajat qilishi kerak. Ham o‘qish, ham kontrakt to‘lash, ham sizlarni boy qilib ko‘rsatish – it azobi!

Keladigan yoshlarimizning deyarli hammasining bo‘ynida ana shu olaxurjun – oilaxurjun. Yemasa-yemaydi, sizning qorningizni o‘ylaydi. “Endi Toshkentdan uy olishimiz kerak, qizim” deb qolishadi tilla baliq tutib olgan “baliqchilar”. Farzandingiz Toshkentdagi uynimas, o‘qishini, ishini o‘ylashi kerak! Kallasi ishlashi uchun to‘yib ovqatlanishi kerak, ey baraka topgurlar! Namuncha bosim qilasizlar?

Bolangiz bosim qilmasangiz ham aka-ukasini, sizlarni o‘ylaydi. Faqat vaqt bering, oyoqqa turib olsin, o‘zini eplab olsin, keyin o‘zi ulgurji yordam beradi hammangizga.

Bizning millatdan boshqasida ko‘rmadim shunaqa nafsi hakalak otganlarni. Nepal, Hindiston, Vetnamdagilar bizdan qashshoq yashashadi. Ammo farzandlarini “yaxshi o‘qi” deb jo‘natishadi. Natijada ular katta-katta yutuqlarga erishishyapti. Bizning bechoralar bo‘lsa, o‘zini mutaassiblarcha qurbon qilishadi. Boshqa farzandlaringiz uchun, to‘y-hashamingiz uchun, mahallada tilingiz bir qarich bo‘lishi uchun bitta farzandingizni shunchaki qurbon qilib qo‘yaverasizmi?

Ishoning, Yaponiyada ham, boshqa davlatda ham oson pul topib bo‘lmaydi. Bo‘ldi qiling, dang‘illama to‘y, dang‘illama uy, “yana-yana” deb, o‘z vasvasangizni bolaga ham yuqtirmang. Sizga onam xafa bo‘lmasin deb aytolmaydi. Qiynalayotganini sizga ko‘rsatgisi kelmaydi. Birdan nozik joyiga zarba berasiz: “Men sizlarni qiynalib tuqqanman, falon qilganman, piston qilganman”, deb! Qaysidir avlod “uy, to‘y, mashina” degan vasvasadan qutulishi kerak-ku?! Butun dunyo hashamat emas, qulaylikka qarab ketyapti.

Xulosayi kalom, ehtiyoj bo‘lsa, chorangiz qolmasa, bolangizda imkon bo‘lsa, insof bilan so‘rang. Ortiqcha qiynamang. Nafsi o‘pqon bo‘lsa, qudangizning afti qursin, odamlarning ko‘zi uchun qiladigan to‘y-u, boshqa marosimlaringizning rangi raftori qursin! Erkaklar, keraksiz xarajatlarni haddidan oshirayotgan ayolingizga “bo‘ldi qil” deyolmasangiz... Xudo insof bersin hammamizga!

Bahodir ISKANDAROV,
Facebook

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Bosh muharrirning birinchi o‘rinbosari:
Humoyun Akbarov

Mas’ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Muhayyo Pirnafasova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Kirill yozuvidagi adadi – 5 827
Lotin yozuvidagi adadi – 11 904
Media kuzatuvchilar – 19 411
Buyurtma: G – 1040.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:50
Sotuvda narxi erkin.

jadid-media.uz